جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil 29-noyabr
№ 49(49)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

CHO‘LPON BILAN UCHRASHUV



“...Bir kuni o‘sha yerga borganimda peshtaxta oldida salobatli, o‘qimishli ekani bilinib turgan ko‘zoynakli kishiga e’tibor qildim. Odob bilan salom berdim. U alik oldi va: “Yigitcha, siz qayerdansiz?” deb so‘radi. Men ismimni aytib, toshkentlik, texnikum o‘quvchisi ekanimni bildirdim. U: “Juda yaxshi. Bu zamonda o‘qish kerak”, dedi...”

(4-sahifada o‘qing).

ONAJONIM – TABIAT

OMONATGA XIYONAT KECHIRILMAYDI



“Xalqimiz tabiatni “ona” deydi, yerni, suvni e’zozlaydi. Buning zamiridagi haqiqat hozirgi ekologik muammolar ta’sirida yaqqol namoyon bo‘lyapti.”

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2025-yilning yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” deb e’lon qilinishi jamiyatning barcha qatlamlari oldiga ezgu va ulug‘vor vazifalar qo‘ydi. Iqlim o‘zgarishi, tabiat muvozanatining izdan chiqishi dunyo hamjamiyatini jiddiy tashvishga solib turgan hozirgi vaziyatda O‘zbekiston birinchilardan bo‘lib eng oqilona va munosib yo‘ldan borayotganini namoyon etdi.

Shu ishlarga baholi qudrat hissa qo‘shish maqsadida gazetamizda “Onajonim – tabiat” ruknini tashkil qilib, ushbu yo‘nalishdagi muhim mavzularni muntazam yoritib borishga qaror qildik.

TAHRIRIYAT

Aholi uchun farovon va xavfsiz, barqaror turmush tarzini yaratish, albatta, bosh masala. Biroq bunda taraqqiyot mezonlari sifatida sog‘lom ekologik muhit yaratish g‘oyasiga e’tibor qilmaslik mumkin emas. Chunki tabiat muvozanati buzilgan joyda hech qanday amaliyot samara bermaydi.

Atmosferaning ifloslanishi, tuproq degradatsiyasi, cho‘llanish, qum va tuz bo‘ronlari, iqlim o‘zgarishi, o‘simlik va hayvonot olami turlarining kamayib borayotgani, ichimlik suv tanqisligi, ozon qatlamining yemirilishi, oziq-ovqat xavfsizligi kabi o‘nlab muammolar qarshisida jahon hamjamiyati birgalikda yechim izlashi eng maqbul yondashuv ekani e’tirof etilmoqda. Ammo bunda, birinchi navbatda, har bir mamlakat miqyosida amalga oshiriladigan ishlarga jiddiy e’tibor qaratilmog‘i zarur.

YASHILLIK DUNYONI QUTQARADI

“Yashil makon” umummilliy loyihasi mamlakatimiz ertangi kuni, xalqimizning sog‘lom kelajagi uchun, eng muhimi, hayotimizga xavf solib turgan global ekologik buhronlarga qarshi turishda samarali qalqon bo‘la oladigan hayotbaxsh harakat sifatida xalqaro darajada e’tirof etilmoqda. Bu ulkan loyiha shunchaki daraxt ekish aksiyasi emas. U mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan, kelgusi necha yuz yilliklarga daxldor bo‘lgan ulkan strategik vazifadir. Global isishdan, atmosfera havosi ifloslanishidan saqlovchi boshqa manba yo‘q bizda.

O‘tgan hafta davlatimiz rahbari “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi daraxt ekish tadbirida qatnashib, xalqimiz uchun namuna ko‘rsatdi. Uch yil avval boshlangan bu xayrli ish allaqachon yurtimiz bo‘ylab chinakam xalq harakatiga aylandi. Poytaxtimizning Bektemir tumanidagi “Toshkent halqa yo‘li” bo‘yida yashil hududga asos solindi. Buning uchun 100 gektar yer ajratilgan bo‘lib, ikki yilda jami 100 ming tup daraxt va buta ko‘chatlari ekilishi rejalashtirilgan.

(Davomi 2-sahifada).

JARAYON

IKKI POYTAXTNING YAKDIL XABARNOMASI

Yaqinda Germaniya poytaxti Berlinda “HAPTSTADT-BRIEF – POYTAXTNOMA” nomli yangi gazeta tashkil etildi. Unda O‘zbekiston-Germaniya hamkorlik qirralari haqida qiziqarli maqolalar berib borilayotir. Eng qizig‘i, gazeta ikki tilda – olmon va o‘zbek tillarida chop etilmoqda. Unda ikki mamlakat siyosatchilari, tadbirkor va iqtisodchilar hamda olimlarga minbar berilgan.

Ana shu gazeta ikki olmon mamlakati birlashgan kun munosabati bilan Toshkentda tashkil etilgan yig‘ilishda jamoatchilikka rasman taqdim etildi va katta xursandchilik bilan kutib olindi. Olmoniyada shu paytgacha Yevroosiyo mintaqasi uchun bunaqa ikki tilli gazeta chop etilmagan. Bu nima degani? Bu O‘zbekistonning Yevropa mintaqasidagi obro‘yi balandligidan, Yurtboshimiz olib borayotgan xalqaro siyosatning yuksak e’tirofidan dalolat, albatta.

Yevropa Ittifoqi rahbari Ursula fon der Lyayen xonim yil boshida bayonot berib, shunday degan edi: **“Biz Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan amalga oshirilayotgan o‘zaro aloqalarimizni vaqtincha to‘xtatib turamiz, biroq faqatgina O‘zbekiston bilan boshlangan har tomonlama**



munosabatlarimizni bundan keyin ham og‘ishmay davom ettiramiz, chunki O‘zbekiston rahbariyati zamonaviy va demokratik, ochiqlik va shaffoflik siyosatini yurgizmoqda, jahonda mavjud keskinlashayotgan vaziyatlarni bartaraf qilish va yumshatish yo‘lida yangidan yangi taklif va tashabbuslarni ilgari surmoqda”.

(Davomi 2-sahifada).

BUGUNNING SHE’RI

Kengesboy KARIMOV,
O‘zbekiston xalq yozuvchisi,
Qoraqalpog‘iston xalq shoiri

QORAQALPOQ TILIM MENING

Amu, Orol bo‘ylarinda
Tuqqan yurtim, elim mening.
Bobomlardan meros qolgan
Qoraqalpoq tilim mening.

Kuylamasam “Alpomish”ni,
Tarqarmikin cherim mening.
Parvoz qilgan ulkan qushday
Qoraqalpoq tilim mening.

Ajiniyoz, Berdaq bo‘lib
Sayragan bulbulim mening.
Turkiy zabon erur azal –
Qoraqalpoq tilim mening.

Yashnagay tug‘ishgan ellar,
Turkiy tilda gulim mening.
Bo‘stonda eng go‘zal, ko‘rkam
Qoraqalpoq tilim mening.

Onajonim so‘zin aytmay
O‘tarmikin kunim mening.
O‘zing ruhim, aqlim, o‘yim,
Qoraqalpoq tilim mening.

Hazil, hajv, ilmoqli so‘z –
Boyligimiz mening, sening.
Men uchun tuganmas ilhom
Qoraqalpoq tilim mening.

(Davomi 2-sahifada).

SUHBAT



“BOBURNOMA” DANTE DIYORIDA

TAHRIRIYATDAN:

Yaqinda Italiyaning tarixiy ilmiy-ommabop adabiyotlarga ixtisoslashgan yetakchi nashriyotlaridan biri “Sandro Teti Editore” nashriyot uyi Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur “Boburnoma” asarini ilk bor italyan tilida ommaviy tirajda chop etdi.

Sohibqiron Amir Temurning avlodi Bobur Mirzo hassos shoir, qomusiy olim, atoqli davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida o‘zidan takrorlanmas va boy ijodiy-ilmiy meros qoldirgani barchaga ma’lum.

Bobur ijodining durdonasi, hech shubhasiz, XV-XVII asrlarda O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston va Eronda sodir bo‘lgan tarixiy voqealar haqida hikoya qiluvchi “Boburnoma” tarixiy-biografik asaridir. G‘oyat muhim va ko‘p qirrali ma’lumotlar asosida mohirona tartib berilgan ushbu xotira kitobini mazmun jihatidan beqiyos hayotiy ensiklopediyaga qiyoslash mumkin.

(Davomi 5-sahifada).

FESTIVAL

Adabiy diydorlashuv

Poytaxtimizda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va TURKSOY Xalqaro tashkiloti hamkorligida o‘tkazilayotgan “Turkiy tilli davlatlar xalqaro she’riyat bayrami“ qizg‘in ruhda o‘tmoqda.



She’riyat bayrami ishtirokchilari Adiblar xiyoboni bilan tanishib, shoir va mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy haykali poyiga gullar qo‘ydi. Mamlakatimizda ijodkorlarni rag‘batlantirish, ular uchun zarur sharoit va imkoniyatlarni yaratish, yosh ijodkorlarni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash borasidagi ezgu va ibratli ishlar ishtirokchilarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Yozuvchilar uyushmasining anjumanlar zalida XVI Xalqaro turkiy she’riyat festivalining tantanali ochilishiga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘ldi.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid xalqaro she’riyat bayrami ishtirokchilarini qutladi.

– Hazrat Navoiyning yurtidagi bunday xalqaro she’riyat bayramida ishtirok etayotganimdan behad mamnunman, – dedi Turkiya Yozarlar birligi raisi Musa Kazim Aristan. – Turk dunyosi – buyuk makon. Bizning ajdodlar asriy ma’naviy, ma’rifiy, adabiy rishtalar bilan o‘zaro bog‘langan. Bu mushtaraklikni, ildizlarimizning ko‘hnaligini Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham ko‘rish mumkin.

Tadbirlar davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan o‘zbek tilida nashr qilingan 100 jildli “Turkiy adabiyot durdonalari” majmuasi taqdimoti ham o‘tkazildi. Ma’lumki, Davlatimiz rahbarining 2019-yil 15-oktyabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashi yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalarini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasi tez orada amalga oshganidan barcha turkiy tilli yozarlar hayratlarini yashirolmadilar. Shuningdek, tadbirlar doirasida turkiy adiblarning bir nechta kitobi taqdimoti ham ko‘zda tutilgan.

XVI Xalqaro turkiy she’riyat bayrami ijodkorlarning o‘zaro fikr va tajriba almashinuvida muhim ahamiyat kasb etishi bilan diqqatga sazovor. Adabiy anjumanlar, davra suhbatlari, mushoiralar, taqdimotlar, ma’rifiy muloqotlar davom etmoqda.

Nazokat USMONOVA
(O‘zA)

NUQTAYI NAZAR



MA’NAVIY EKSPERTIZA – QONUN TALABI!

“So‘z erkinligi madaniyatsizlik bazmi emas!” maqolasini o‘qib

Ma’naviyat va ma’rifat markazining O‘zbekistonda mediamahsulotlar ma’naviy ekspertizadan o‘tkazilishi tartibi joriy etilishi to‘g‘risidagi ma’lumoti yuzasidan internet saytlarda, ijtimoiy tarmoqlarda ijobiyga qaraganda ko‘proq tanqidiy fikrlar bildirilmoqda. Xususan, “Facebook”dagi bir faol ishtirokchining sahifasida bu “qip-qizil senzura”, so‘z va ijod erkinligiga tahdid deb baholanib, “Ma’naviyat markazi o‘zining harakatlari qaysi qonun, Konstitutsiya va xalqaro normalarga muvofiqligini izohlay oladimi?” degan savol qo‘yilgan.

Bu savolga javob bitta: mediamahsulotlarning ma’naviy ekspertizasi zarurligi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, axborot va madaniy faoliyat sohalarini tartibga soluvchi barcha qonunlari normalaridan kelib chiqadi.

(Davomi 3-sahifada).

OMONATGA XIYONAT KECHIRILMAYDI



Boshlanishi 1-sahifada.

Ularni parvarishlash uchun 3 ta sun’iy suv havzasi va 12 ta quduq barpo etildi.

Ushbu hudud Toshkent “yashil belbog‘”ining bir qismi bo‘ladi. Ya’ni, poytaxtimiz musaffo havosini ta’minlaydigan manba, inson omili tufayli atmosferaga chiqarilayotgan zaharli gazlarning tabiiy filtriga aylanadi. “Yashil makon” loyihasida har bir shahar atrofida mana shunday “yashil belbog‘”lar yaratilmoqda.

Bunday “yashil belbog‘”lar yaratishga, ayniqsa, Orolbo‘yi mintaqasi, xususan, Nukus, Xiva va Urganch shaharlari atrofida alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, Orol dengizining qurigan tubi va Orolbo‘yi hududlarida “yashil qoplamalar” – himoya o‘rmonzorlarini barpo etish ishlari izchil davom ettirilib, barpo etilgan “yashil qoplamalar” orasida ozuqaviy birligi yuqori, noan’anaviy, sho‘r va suvsizlikka chidamli bir yillik va ko‘p yillik o‘simliklar plantatsiyalari yaratish ko‘paytiriladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning **“Xalqimiz tabiatni “ona” deydi, yerni, suvni e’zozlaydi. Buning zamiridagi haqiqat hozirgi ekologik muammolar ta’sirida yaqqol namoyon bo‘lyapti. Shuning uchun “Yashil makon” loyihasini boshladik. Kelgusi yil nomini ham atrof-muhitni asrash masalasiga bag‘ishladik. Endi bu tashabbuslar keng yoyilishi, ayniqsa, yoshlarimizga chuqur singishi zarur. Har bir xonadon, har bir korxona tabiatni asrashga hissa qo‘shishi kerak”,** degan fikrlari tabiatimizga, xalqimiz kelajagiga befarq bo‘lmagan har bir yurtdoshimiz qalbida aks sado berdi, deb o‘ylayman.

Hozirgi kunda hech qaysi soha atrof-muhitdan ayro holda faoliyat yurita olmaydi. Sababi, atrof-muhit deganimiz, bu – biz nafas olayotgan havo, ichayotgan suvimiz, yashayotgan ona zaminimiz va undagi tirik mavjudotlardir. Bu “oltin halqa”ning uzilishi, ya’ni muvozanatning buzilishi har bir tirik organizm uchun halokatli bo‘lishi tayin.

Achinarlisi shundaki, shu paytgacha kuzatilgan ekologik falokatlarning aksariyati inson ta’sirida yuzaga kelgan. Odamzod o‘zi hayot kechirayotgan ekotizimning vayron bo‘lishiga eng katta “hissa qo‘shayotgan” omil bo‘lib turibdi. Bu – o‘zi o‘tirgan shoxni arralayotgan anoyining holatini eslatadi. Shu bois aholining ekologik savodxonligini tizimli ravishda oshirib borish, fuqarolarda ekologik madaniyatni shakllantirish, qonun va qonunosti hujjatlarida ekologik me’yorlarga amal qilinishini ta’minlash, ekologik huquqbuzarliklarga javobgarlikni kuchaytirish, ta’sirchan jazo mexanizmlarini qo‘llash kabi bir qancha dolzarb vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Birgina daraxtning noqonuniy kesilishi, belgilanmagan joyga chiqindi tashlash, o‘zboshimchalik bilan ov qilish, yirtqich hayvonlarni qonunga xilof ravishda tutqunlikda saqlash kabi yuzlab holatlarda jonkuyar yurtdoshlarimizning kuyunchaklik bilan qilgan murojaatlari ekotizimga yetkazilayotgan zararning bartaraf etilishiga sabab bo‘layotir. Bunda O‘zbekiston Ekologik partiyasining joylardagi mas’ullari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi hamda boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda faoliyat yurityapti.

ONA TABIAT TAQDIRIGA DAXLDORLIK

Men shu soha ishini ozmi-ko‘pmi biladigan, shu tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan, sohaga oid ilmiy izlanishlardan birmuncha xabardor kishi sifatida bir narsani aytishim mumkin: tabiatni asrash biz uchun qadriyatga aylanmas ekan, inson ham, jamiyat ham taraqqiyotga erisha olmaydi.

Puxta ishlab chiqilgan qonunlar, huquqbuzarning javobgarlikka tortilishi, afsuski, muammoning uzil-kesil yechimi bo‘la olmasligi mumkin. Biz fuqarolarda qonunlarni hurmat qilish va ularga so‘zsiz rioya etish xususiyatini shakllantirishimiz juda muhim. O‘tgan yillar mobaynida qonun buzilishi bilan bog‘liq holatlar mas’ul rahbarlar faoliyatida ham kuzatildi. Katta-katta yashil maydonlarni butkul yo‘q qilib, o‘rniga ko‘p qavatli uy yoki ishlab chiqarish korxonasi qurish uchun ayrim shaxslarning ertani o‘ylamay qabul qilgan kaltabin qarorlari sabab bo‘ldi. Bunday holatlar xalqimiz uchun qimmatga tushdi. Oqibatlarini kelajakda ham yana ko‘rishimiz mumkin.

Biz bunga qarshi samarali jamoatchilik nazorati mexanizmini ishlab chiqish va yo‘lga qo‘yish zarur deb hisoblaymiz. Bugun katta shaharlarimizda aholi nafas olishi uchun toza havo, hordiq chiqarishi uchun xiyobon va bog‘lar, yashil hududlar, parklar bo‘lishi, albatta, zarur.

Qolaversa, biz ota-bobolarimiz qadriyatlariga uyg‘un ravishda tabiiy va sog‘lom hayot tarzini yuqori tutishimiz kerak. Fuqarolarning piyoda sayr qilishi, velosipedda harakatlanishi, jozibali va har tomonlama qulay jamoat transportidan foydalanishi, oilada har bir yangi tug‘ilgan chaqaloqqa atab ko‘chat o‘tqazishi kabilar nafaqat ajdodlarimiz an’analariga sadoqat, balki bugungi va kelajak avlod oldidagi burchimiz, vazifamiz hamdir.

Biz ekologik ta’lim-tarbiyani oiladan boshlab, bog‘cha, maktab va oliy ta’limda izchil davom ettirish zarur, deganda aynan shuni nazarda tutamiz. Men shu soha ishini ozmi-ko‘pmi biladigan, shu tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan, sohaga oid ilmiy izlanishlardan birmuncha xabardor kishi sifatida bir narsani aytishim mumkin: tabiatni asrash biz uchun qadriyatga aylanmas ekan, inson ham, jamiyat ham taraqqiyotga erisha olmaydi.

Tabiat bizga ota-bobolardan qolgan meros emas. Aksincha, u kelajak avlodlarga asrab-avaylab yetkazib berishimiz kerak bo‘lgan omonatdir. Omonatga xiyonat esa kechirilmaydi.

Abdushukur HAMZAYEV,
O‘zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy Kengashi raisi,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi partiya fraksiyasi rahbari

IKKI POYTAXTNING YAKDIL XABARNOMASI

Boshlanishi 1-sahifada.

Mazkur e’tirofning isboti sifatida shu yil oktyabr oyida Germaniya Federal kantsleri Olaf Shols janoblarining mamlakatimizga davlat tashrifi, uning tarixiy shahar – Samarqandda kutib olinishi, tashrif davomida erishilgan ikki tomonlama manfaatli kelishuv va shartnomalar mavjud hamkorligimizga yanada katta turtki bo‘ldi.

Ikki tilda chop etiladigan gazetada nashr bosh muharririning maqolasida O‘zbekistonda kechayotgan tarixiy islohotlar e’tirof etilib, uning keng imkoniyatlar mamlakatiga aylanib borayotgani, hamkorlik uchun mintaqadagi eng jozibador davlat sifatida ko‘rilayotgani to‘g‘risida fikr yuritiladi. Shuningdek, rasmiy tashriflar chog‘ida erishilgan qator kelishuvlar va ularning istiqbollari ham tahlil qilinadi.

Gazeta mundarijasidan o‘rin olgan O‘zbekistonning Olmoniyadagi elchisi Dilshod Ahatovning “O‘zbekiston innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlab, farovonlikni oshirmoqda”, Saksen-Anhalt o‘lkasi prezidenti Gunnar Shellenbergerning “Uchrashuvlar va almashinish bir-birimizni tushunishga yordam beradi” kabi dolzarb fikr-mulohazalarga boy maqolalari ham o‘quvchini befarq qoldirmaydi. Bundan tashqari, “Bright Uzbekistan” jaridasining bosh muharriri Davron Abdullayevning “Sharqda shundayin bir shahar bor” maqolasida Toshkent shahri o‘tmishi va hoziri haqidagi go‘zal maqola ham gazeta sahifalarini bezagan. Aytishim kerakki, 16 sahifadan iborat bu gazetaning har sahifasida bir-biridan qiziqarli mavzu va materiallarni o‘qish mumkin. Gazetadagi maqolalar ikki mamlakat tarixi va taqdiri haqidagi ma’lumotlarni o‘zida jamlagani bilan ham ahamiyatlidir.

Quyida “HAPTSTADT-BRIYEF – POYTAXTNOMA” gazetasi bosh muharririning “Germaniya va O‘zbekiston – hamkorlik istiqbollari” nomli maqolasi e’tiboringizga havola qilinmoqda.

Xurram RAHIMOV,
professor

GERMANIYA VA O‘ZBEKISTON – HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

Federal kantsler Olaf Sholtsning Markaziy Osiyo va ayniqsa, O‘zbekistonga safari mintaqa uchun muhim ahamiyatga ega voqealardan biri bo‘ldi. Chunki Sovet Ittifoqi tanazzulidan keyingi 30 yil davomida aynan O‘zbekiston milliy an’analar va zamonaviylik masalasida muvozanat saqlab kelayotgan va ko‘p sohalarda taraqqiy etib, dunyoga ochilib borayotgan davlatlardan biridir.

Bu yerda eng muhim jihatlardan biri iqtisodiyotning tobora liberallashib borayotgani natijasida g‘arb korxonalarining faolligi oshishiga imkoniyat yaratilayotganidir. Federal kantsler Olaf Sholts tashrifining sabablarini ham shunda ko‘rish mumkin.

2024-yilning 15-sentyabridagi O‘zbekistonga tashrif Z5+1 formatidagi uchrashuvning boshlanishi bo‘ldi. Kantsler Markaziy Osiyoning besh davlati – O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston rahbarlari bilan muloqot qildi. Unda iqtisodiyot, energetika, iqlim va atrof-muhit masalalari ko‘rib chiqildi. Bu muloqotlar Markaziy Osiyo va Germaniya (Yevropa Ittifoqi) munosabatlarining qalinlashayotganini ko‘rsatmoqda. Bu ayniqsa, O‘zbekiston uchun muhim, chunki hamkorlikni yaxshilashning eng yaxshi yo‘li, bu iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirishda ikki tomonlama kelishuvlarga erishishdir.

MIGRATSIYA BO‘YICHA KELISHUV ORQALI YAQINLASHISH

Olaf Sholts tashrifining asosiy mavzularidan biri O‘zbekiston bilan migratsiya bo‘yicha kelishuv bo‘ldi. Unga binoan endi o‘zbekistonliklar Germaniyaga borib ishlashi mumkin. Germaniya asosan sog‘liqni saqlash va keksalarni parvarishlash sohasida xorijdan keladigan malakali ishchilarga muhtoj. Albatta, boshqa sohalarga ham taalluqli bu. O‘zbekiston aholisi yosh va ko‘pchilik malakali ishchilar hisoblanadi. Ayniqsa, O‘zbekiston ta’lim sohasini Germaniyaning ehtiyoji va talablariga moslashi mumkin.

Bunday kelishuv ikkala tomon uchun manfaatli bo‘lishi kutilmoqda, chunki O‘zbekistonda ko‘p yoshlar hozirda ish bilan yetarlicha band emas. Bu samarali almashinish va o‘zaro munosabatlar uchun juda yaxshi omil. Migratsiya bo‘yicha kelishuv orqali O‘zbekiston va Germaniya ijtimoiy va iqtisodiy tomondan ham bir-biriga yanada yaqinlashadi. Odatda, bunday kelishuvlar tabiatan har doim ikki davlat o‘rtasida madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hamkorlik kuchayishiga olib keladi. Ayni chog‘da, bu O‘zbekiston uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

BIRODARLASHGAN SHAHARLAR ORQALI ALMASHINUV

Ikki poytaxt – Toshkent va Berlin deyarli o‘ttiz yildan beri birodarlashgan shahar maqomida milliy munosabatlar chuqurlashuvi uchun o‘ziga xos kalit bo‘lib xizmat qilmoqda. Chunki u geosiyosatdan chetlanish va xos masalalarga e’tibor qaratishga; boshqa mavzularga chalg‘imasdan, pragmatik almashinishga ko‘proq imkoniyat beradi.

Olaf Sholtsning tashrifidan keyin O‘zbekistonga kelgan Berlinning adliya senatori Felor Badenberg va ichki ishlar senatori Iris Spranger O‘zbekistonda sal ko‘proq muddat bo‘lishdi. Ular Toshkentda o‘tkazilgan Germaniyaning 1990-yil 3-oktyabrdagi Germaniya birligi kunini nishonlashga bag‘ishlangan bir haftalik tantanada ishtirok etishdi hamda ma’muriy, adliya va xavfsizlik mavzularida muloqot qilishdi.

Germaniya poytaxti Berlinga kelajakda O‘zbekistondan ko‘p yoshlar kelib ishlashi va bu yerda bir necha yil yashab, o‘zbek madaniyatini Germaniya poytaxti ahliga yanada yaqinroq tanishtirishi mumkin.

Federal kantsler va ikki senatorning tashrifi mintaqalararo munosabatlar yanada yaqinlashib borayotgani va muloqot xohishini namoyon etmoqda.

1-DEKABR – QORAQALPOQ TILI KUNI

AJINIYOZ, BERDAQ BO‘LIB...



Boshlanishi 1-sahifada.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Toshkent shahrida barpo etilgan Adiblar xiyobonida qoraqalpoq tili va adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shgan uch ulug‘ adib – Berdaq, Ibroyim Yusupov, To‘lepbergen Qayipbergenovning ham muazzam haykallari o‘rnatilishi butun xalqimiz, xususan, qoraqalpoq eliga katta quvonch va g‘urur bag‘ishladi.

Turkiy tilimizni Osiyo tuprog‘ida ildiz otgan baquvvat chinor sifatida tasavvur qilsak, qoraqalpoq tili shu baquvvat chinorning bitta shoxi, yam-yashil yaprog‘idir.

Qadim zamonlardan buyon qoraqalpoqlar o‘zbek, qozoq, turkman va boshqa turkiy millatlar bilan qo‘shni, yonma-yon yashagan. Yarim o‘troq hayot kechirgan bu xalq chorva, ovchilik va dehqonchilik bilan kun ko‘rgan. Jirovlarimiz ming yillar avval “Alpomish” dostonini aytib, yuraklarni sel qilgan. Baxshilar “Oshiq G‘arib”ni kuylab, ko‘ngillarni daryodek toshirgan. Keng sahroni makon qilib ot choptirgan turkiy xalqlarning qo‘shiqlari-yu kuylarining ohanglari bir-biriga undosh, darddosh, mungdosh.

O‘zbek, qozoq, qirg‘iz va boshqa xalqlar O‘rxun-Enasoy davrlarida turkiy til tarmoqlari: o‘g‘uz, qipchoq, qarluq va boshqa lahjalarida yaratgan ertaklar, dostonlar, asarlarning o‘zagi yagona. Menimcha, qadimgi oltoy dostoni “Manas”dan hozirgi “Alpomish” va qirg‘izlarning mashhur “Manas” eposi kelib chiqqan bo‘lsa, ajab emas.

Hozirgi qoraqalpoq yozuviga XX asr boshlarida asos solindi. Dastlabki qoraqalpoq alifbosini yaratgan shoir va alloma, jadid Sayfulg‘abit Majitov edi. U Qosim Avazov bilan birgalikda arab harflari asosida isloh qilingan qoraqalpoq yozuvini muomalaga kiritdi.

1830-yillarda madrasaga shogird-talaba bo‘lib borgan Berdaq Qarg‘abay o‘g‘li bir she’rida:

Navoiydan savod ochdim,
Fuzuliydan durlar sochdim,

– deb yozgan edi. Shoirning Alisher Navoiy g‘azallarini sevib yod olgani, bu – qoraqalpoq va o‘zbek tillari avvaldan chambarchas bog‘liq ekanidan darak beradi. U paytlarda madrasalarda Alisher Navoiy, Fuzuliy, Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, So‘fi Olloyor she’rlari o‘qitilgan va talabalar sevib yod olgan.

Umumturkiy folklordan bahra olgan qoraqalpoq xalqi og‘zaki ijodiyoti boy va rang-barangdir. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi ilmiy xodimlari tomonidan o‘nlab xalq dostonlari va ularning variantlari, yuzlab ertaklar, asotirlar, qo‘shiqlar yozib olinib, tasniflab, chop etilgan. Bu dargohda xalq og‘zaki ijodiyoti namunalari jamlangan, 100 jilddan iborat majmua ham nashr qilindi. Og‘zaki ijod namunalari va xalq dostonlarining serobligi qoraqalpoq xalqining ijodga tashna va ilhomi qaynoq ekanidan darak beradi.

XVIII–XIX asrlarda ijod qilgan Jiyan Jirov, Kunxo‘ja, Ajiniyoz, Berdaq kabi allomalar qoraqalpoq tili rivojini yangi bosqichga ko‘tardi. Ayniqsa, Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li qoraqalpoq she’riyatiga o‘zbek mumtoz adabiyoti an’analarini (aruz vazni, yangi metaforalar, arab, fors, eski o‘zbek tilidan so‘zlarni) olib kirish orqali tilimizni yanada boyitdi. Ajiniyoz ijodini o‘rganuvchilar va tarjimonlar “shoir she’rlari turkiy kitobsevarlarga tarjimasiz ham deyarli tushunarli”, degan fikrni alohida ta’kidlashi ham bejiz emas.

O‘tgan asrda qoraqalpoq yozuvi va grammatikasi ishlab chiqildi. Ijodkorlarimiz o‘z ona tilida yozgan asarlarida xalqimizning boy madaniyati, urf-odatlari, oliyjanob va go‘zal qadriyatlarini olamga tanitdi. Qoraqalpog‘iston xalq shoiri va O‘zbekiston xalq artisti Abbaz Dabilov xalq og‘zaki ijodini chuqur o‘rgangan ijodkorlardan biri edi. O‘zbekiston xalq shoirlari Tilovbergen Jumamuratov, Ibroyim Yusupov, O‘zbekiston xalq yozuvchilari Jo‘lmirza Oymirzayev, To‘lepbergen Qayipbergenov o‘zlarining go‘zal she’rlari, dostonlari, romanlari bilan o‘zbek kitobxonlariga keng tanildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yaratilgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar sharofati bilan qoraqalpoq tili o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, turk tillari qatorida rivojlanishning yangi tarixiy davrini boshidan kechirmoqda. Qoraqalpog‘istonda o‘zbek tili bilan bir qatorda qoraqalpoq tiliga davlat tili maqomi berildi. O‘ndan ziyod gazeta va jurnallar, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun darsliklar, badiiy adabiyot namunalari qoraqalpoq tilida nashr etilmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan Toshkent shahrida barpo etilgan Adiblar xiyobonida qoraqalpoq tili va adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shgan adiblarimizga muhtasham haykallar o‘rnatilgani ham xalqimizga ko‘rsatilgan yuksak e’tiborning yorqin namunasidir. Bir qator teleradiokanallar, gazeta-jurnallar shu tilda uzluksiz ish yurityapti. O‘tgan yili yetti jildlik “Qoraqalpoq tilining tushuntirma so‘zligi” lug‘ati nashr etilgani ham uning rivojida muhim voqea bo‘ldi.

2024-yil mamlakatimizda qoraqalpoq mumtoz adabiyotining ulug‘ namoyandasi Ajiniyoz yili bo‘ldi, desak adashmaymiz. Shoir tavalludining 200 yillik tantanalari xalqaro miqyosda yuksak darajada nishonlanishi Yangi O‘zbekistonda madaniyat va adabiyotga, tilimizga, milliy merosimizga juda katta e’tibor qaratilayotganining amaliy isbotidir. Bu ishlarga bosh-qosh bo‘lib kelayotgan hurmatli Prezidentimizga minnatdorligimiz va rizoligimiz cheksizdir.

Boshlanishi 1-sahifada.

MA’NAVIY EKSPERTIZA – QONUN TALABI!

“So‘z erkinligi madaniyatsizlik bazmi emas!” maqolasini o‘qib

Konstitutsiyamizning 33-moddasi ijtimoiy axloqni ta’minlash maqsadida axborotni tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga yo‘l qo‘yilishini belgilaydi. “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 4, 14-moddalari esa jamiyatning axloqiy qadriyatlarini ta’minlash maqsadida axborot olish cheklanishi mumkinligini, ma’naviy boyliklarni asrash jamiyatimizning axborot borasidagi xavfsizligini ta’minlash yo‘llaridan biri ekanligini belgilaydi. “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasiga muvofiq ma’naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi madaniy faoliyatning asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi.

O‘z-o‘zidan kelib chiqadiki, ijodiy faoliyat erkinligi ham ma’naviy-axloqiy me’yorlar doirasida bo‘lishi kerak. Qonunning 21-moddasi konsert-tomosha tadbirlarida odob-axloq qoidalariga, ma’naviyatga, milliy mentalitetga muvofiq bo‘lgan musiqiy asarlar ijro etilishini taqozo etadi.

Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, ma’naviy-axloqiy mezonlarga zid mediamahsulotlarning namoyish etilishi va tarqatilishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun mutasaddi idoralar va tashkilotlar tomonidan maxsus qarorlar qabul qilinishiga va bu borada amalga oshiriladigan ishlarni “ma’naviy ekspertiza” deb nomlashga hech qanday zarurat yo‘q. Chunki bunday ishlarni amalga oshirish axborot, madaniyat, san’at sohalarini tartibga solishga, jamiyatimizda ma’naviyat va ma’rifat targ‘ibotiga mas’ul mutasaddi idoralar va tashkilotlar, shu jumladan, O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi, Yozuvchilar uyushmasi kabi ijodiy professional tashkilotlarning kundalik vazifasi, ularning nizomlarida, ustavlarida belgilangan funksiyalaridir. Bundan tashqari, qonunlarimizga muvofiq madaniy mediamahsulotlarni yaratuvchi va tarqatuvchi tashkilotlarda badiiy kengashlar mavjud bo‘lishi kerak, ular qonun talablaridan kelib chiqib ishlasa, qo‘shimcha yana “ma’naviy ekspertiza” guruhlarini tashkil qilishga zarurat bo‘lmaydi.

Ayni paytda aholimiz “iste’mol” qiladigan mediamahsulotlar borasida ahvol juda achinarli va noto‘g‘ri talqin qilinadigan so‘z va ijod erkinligi bayrog‘i ostida yildan yilga murakkablashib bormoqda.

Bunday holatning sabablaridan biri – nazorat va senzura tushunchalarining farqlanmasligida. “Senzura qilinmasin” deb nazorat ham qilinmaydigan bo‘lib qoldi...

Senzura – axborotni e’lon qilishdan oldin maxsus idora tomonidan tekshirish. Bu qonun bilan taqiqlangan. Lekin axborot tarqatish qoidalari bor! So‘z erkinligi degani har kim xohlaganini xohlagan shaklda yaratishga va tarqatishga haqli degani emas! Shaxsiy avtomobilingizni istalgan joyda, istalgan vaqtda haydashingiz mumkin – siz erkinsiz! Lekin yo‘l harakati qoidalariga rioya qilishga majbursiz, ushbu qoidalarga shaxsiy mulkingizdan foydalanishga cheklov sifatida qarash mumkin emas.

Yana bir sabab shundan iboratki, aksariyat OAVlar, madaniyat va san’at sohasida xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar xususiy biznes tuzilma – tadbirkorlik subyekti shaklida faoliyat yuritishadi.

“Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasiga muvofiq tadbirkorlik – “tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir”. Ya’ni, hammamiz bilamizki, biznesning asosiy maqsadi – foyda olish. Bugun ana shu maqsadga erishish jazavasiga tushgan internet-saytlar, xususiy telekanallar, qo‘shiqchi, kinochi shoumenlar odamlar e’tiborini tortish, reytingini oshirish, reklama beruvchilarni jalb etish yo‘lida ko‘plab saviyasiz ko‘rsatuvlarni, seriallarni efirga uzatmoqdalar, shov-shuvli axborotlarni tarqatmoqdalar.

Odamlarimiz davlat telekanallariga qaraganda xususiy telekanallarni ko‘proq tomosha qiladilar. Bu telekanallar esa foydali axborot bilan emas, balki badiiy saviyasi past, mazmuni sayoz seriallar, shoumenlarning bachkana qiliqlari-yu tuturiqsiz, til qoidalarini buzib, ko‘cha tilida aytilgan gaplariga boy ko‘ngilochar shou-dasturlar, bema’ni, yengil-yelpi qo‘shiqlar, shov-shuvli yangiliklar bilan odamlarni o‘ziga jalb qilmoqda. Ularning aksariyat ko‘rsatuvlari inson ong-u tafakkuri, ruhiyati, dunyoqarashi, ma’naviyatiga, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir qiluvchi axborot – ma’naviy zahardir.

Har joyda yangrayotgan bema’ni qo‘shiqlar son-sanoqsiz... Shou-biznesmenlarning soxta mahsulotlari ma’naviy hayotimizda asl musiqiy san’at asarlari o‘rnini tobora ko‘proq egallab bormoqda... Ularning bema’ni, saviyasiz, bachkana, yengil-yelpi musiqasimon shovqin shaklidagi “ijod” mahsulotlari teleradiokanallar, internet, ijtimoiy tarmoqlar, konsertlar, ommaviy tadbirlar, to‘y-u tomoshalar, ko‘cha-ko‘yda, kafe-restoranlarda, barcha jamoat joylarida taqdim etilib, targ‘ib, reklama qilinib, odamlarning musiqiy didini tubanlashtirmoqda, ular ongini zaharlamoqda, ma’naviyatini yemirmoqda.

Misollar: “Atrofingda shahzodalar ko‘p. Kel, o‘shalar oldida men g‘aribni bitta o‘p” deb kuylanadigan shou-biznes mahsuloti haligacha “xit” asar bo‘lib qolmoqda... Hatto davlatga qarashli “Navo” telekanali orqali ham shoumenlarning bema’ni qo‘shiqlari pulli asosda efirga berilishi davom etmoqda... Buni to‘xtatish kerak! Davlat telekanali shunday qilayotgan bo‘lsa, boshqalardan nimani kutish mumkin, axir?!

Prezidentimiz 2017-yil 3-avgust kuni, yurtimiz ziyolilari bilan o‘tgan uchrashuvda *“O‘zbekistonda adabiyot va san’at, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, ma’naviyat va ma’rifat biznesga aylanmasligi shart va biz bunga hech qachon yo‘l qo‘ymaymiz”,* deb alohida ta’kidlagan edi. Mana, yetti yildan ko‘p vaqt o‘tdi. Afsuski, davlat rahbarining ushbu ko‘rsatmasi OAV xodimlari, mutasaddi davlat organlari, deputatlik korpusi, ijodkor ziyolilarimiz tomonidan haligacha anglab yetilmadi. Natijada biznes subyekti bo‘lgan tashkilotlar va shaxslar tomonidan yaratilayotgan va tarqatilayotgan zararli mediamahsulotlar kundan kunga ko‘payib, jamiyatimizda ma’naviy yemirilish alomatlarini kuchaytirmoqda.

Mediamahsulotlarni yaratish va tarqatish sohasida ma’naviyat sari burilish qilish uchun ommaviy axborot vositalarini, madaniyat va san’at sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlarni tadbirkorlik subyekti emas, balki faqat nodavlat notijorat tashkiloti (NNT) tashkiliy-huquqiy shaklida faoliyat ko‘rsatishi mumkinligini nazarda tutuvchi me’yorni qonun yo‘li bilan belgilab qo‘yishning vaqti allaqachon kelgan!

Mutasaddi idoralar – Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi va Madaniyat vazirligi qonun hujjatlarida belgilangan o‘z vakolatlarini ishga solib, axborot va madaniy faoliyat sohalarida ma’naviy zahar tarqatayotgan shaxslar va ommaviy axborot vositalari, jumladan, xususiy telekanallarga nisbatan tegishli choralarni ko‘rishlari shart deb o‘ylayman.

Mamlakatimiz ziyolilarining jamoat tashkilotlari – jurnalistlar, yozuvchilar, kompozitorlar uyushmalari ham jim turmasdan, Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan bir qatorda mediamahsulotlar borasida ma’naviyat sari burilish yasashda faolroq bo‘lib, jamoatchilik orasida tushuntirish, targ‘ibot ishlarini jadallashtirishlari kerak.

Xullas, mediamahsulot yaratish va tarqatish qoidalarini zamon talablari, hayot voqeliklari, sog‘lom informatsion va ma’naviy muhit yaratish zaruratidan kelib chiqib takomillashtirish, qonunlarimizga tegishli o‘zgartirishlar kiritish va bu borada qonun talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish – hayotiy zarurat.

Farhod QURBONBOYEV,
iqtisod fanlari nomzodi.

“Hurriyat” gazetasining
2024-yil 27-noyabr
47-sonidan olindi.

“AXBOROT ERKINLIGI PRINSIPLARI VA KAFOLATLARI TO‘G‘RISIDA”GI QONUN, 4-MODDA:

Axborot erkinligi:
...Axborot olish faqat qonunga muvofiq hamda inson huquq va erkinliklari, konstitutsiyaviy tuzum asoslari, jamiyatning axloqiy qadriyatlari, mamlakatning ma’naviy, madaniy va ilmiy salohiyatini muhofaza qilish, xavfsizligini ta’minlash maqsadida cheklanishi mumkin.

TAHRIRIYATDAN:

“Prezidentimiz 2017-yil 3-avgust kuni, yurtimiz ziyolilari bilan o‘tgan uchrashuvda “O‘zbekistonda adabiyot va san’at, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, ma’naviyat va ma’rifat biznesga aylanmasligi shart va biz bunga hech qachon yo‘l qo‘ymaymiz”, deb alohida ta’kidlagan edi. Mana, yetti yildan ko‘p vaqt o‘tdi. Afsuski, davlat rahbarining ushbu ko‘rsatmasi OAV xodimlari, mutasaddi davlat organlari, deputatlik korpusi, ijodkor ziyolilarimiz tomonidan haligacha anglab yetilmadi”.

Biz bu og‘riqli muammoni gazetamizning o‘tgan sonlarida seriallar, telenovellalar, ijtimoiy tarmoq sahifalarida berilayotgan tuturiqsiz videomahsulotlar va siyqa qo‘shiqlarga tahliliy va tanqidiy munosabat tarzida berib borganmiz.

Farhod Qurbonboyev iqtisodchi olim sifatida masalaga qonunchilik nuqtayi nazaridan yondashib, ortiqcha his-tuyg‘uga berilmagan holda ko‘pchiligimizni ikkilantirib turgan jihatlarga oydinlik kiritib bergan.

Qadrli gazetxon, ushbu dolzarb maqolani e’tiboringizga havola etarkanmiz, Sizning ham ayni mavzu yuzasidan munosabatingizni kutib qolamiz. Zero, bu masala nafaqat bugunimiz, balki ertamiz qanday qiyofa kasb etishini ham belgilab berguvchi omildir.

IBRAT

MUZEY OCHGAN OTAXON

Sakson yoshli otaxon jadid bobolarimizning chinakam targ‘ibotchisiga aylandi

Yozyovonlik Ahmadjon Ismoilov keksalikni qalam tebratishdan boshladi. Vulqon tog‘lari ham uzoqdan sokin ko‘rinadi. Ammo uning tub-tubida tabiatni larzaga solishga qodir qaynoq lava portlashga hozirlik ko‘rayotgan bo‘ladi. Qahramonimiz ham bir umr ko‘z oldimizda yurib, “ochilur chog‘”ini kutib turgan ekanmi – ochildi-qoldi. Ketma-ket “Toshhovuz va toshhovuzliklar”, “Yozyovon ziyoratgohlari”, “Usta Mahmudjon domla”, “Qoriyi-saqqo azizlar”, “Yozyovon qomusi” kitoblari dunyo yuzini ko‘rdi.



Bu yog‘ini so‘rasangiz, o‘zlari Farg‘ona pedagogika institutining tarix-geografiya fakultetini bitirgan. Bir qancha muddat tumandagi 5-maktabda, 41-hunar-texnika bilim yurtida o‘qituvchi, ilmiy bo‘lim mudiri bo‘lib ishlagan. Bolalar va o‘smirlar uyida “Yosh o‘lkashunoslar” to‘garagini boshqargan. Xalq ta’limi bo‘limida yo‘riqchilik qilgan.

Shuningdek, u kishi birinchi darajali “Mehnat faxriysi” ko‘krak nishoni bilan izzatlangan nuroniylarimizdan. Eh-he, Ahmadjon Ismoilovning ichki olami bamisoli ochilmagan qo‘riq! Mana, bir misol: u kishi talabalik yillaridanoq mohir doirachi edi. Qadrdoni Tilavoldi Jo‘rayev qo‘shiq aytar, yonida Ahmadjon doirani gumbura-qars chalardi. U childirma chalganda Qahramon Dadayevning o‘zi bo‘lardi-qolardi!

Yana nima hunari bor dersiz? Shoshmay turing. “Yosh o‘lkashunoslar” to‘garagini boshqarganda o‘quvchi o‘g‘il-qizlar bilan safar xaltalarini yelkalab, vodiyning go‘zal va manzarali go‘shalarida chodir tikar, tinmay sayohat uyushtirardi. Yozyovondan Shohimardon tog‘larigacha, bu yog‘i Yordon cho‘qqilarigacha mototsiklda kezib chiqqan yosh sayohatchilar ushbu safarlarni unutadi, deysizmi?!

Ahmadjon Ismoilov biron yumushni qo‘l uchida, shunchaki, nomiga, o‘tdi-ketdi qabilida bajarmaydi. Chin ko‘ngildan, fidoyilik va jonkuyarlik bilan astoydil qiladi.

O‘z hovlisida, o‘g‘illari tomorqasida u ko‘kartirgan, hozir shig‘il hosilga kirgan limon, apelsin daraxtlarini ko‘rib, ko‘zingiz quvnaydi. U kishi sitrus ko‘chatlari yetishtirishning Yozyovonda eng ilg‘ori bo‘lganiga qirq yillar bo‘ldiyov. Yetishtirgan limon va apelsin ko‘chatlari doim bozorgir, xaridori ko‘p. U yaratgan limon sharbati butun Farg‘ona vodiysida dovrug‘li.

Keksa muallim ayni paytda jamoatchilik ishlari bilan band. Tuman hokimining xalq ta’limi bo‘yicha maslahatchisi, Yozyovondagi qirqta maktabning barchasiga borib ulguradi. Yosh muallimlarga maslahat beradi. Turli uchrashuv va tadbirlar boshida turadi. Yaqinda viloyat bo‘yicha o‘tkazilgan tanlovda g‘olib bo‘lib, Toshkent viloyatida joylashgan “Navbahor” sanatoriysiga yo‘llanma oldi.

Eng quvonarlisi, u kishi o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishloq tarixidan hikoya qiluvchi muzey ochgan. Bu yer hamisha yoshlar bilan gavjum. Yaqinda “Nuroniy” jamg‘armasi respublika boshqaruvi raisi Sodiqjon Turdiyev ham muzeyni ko‘rib, yuqori baholadi.

Ahmadjon akaning mahalla maslahatchilari guruhi, 34-maktab kuzatuv kengashi raisi sifatida o‘z vazifasini sidqidildan bajarayotganini mahalla ahli ham, maktab jamoasi ham e’tirof etadi.

Yozyovon nuroniylari sardori Obid hoji Isoqov tashabbusi bilan 60 nafar qariya ikki avtobusda Namangan tomonlarga, qadimiy Axsikentga sayohatga bordik. Yo‘l-yo‘lakay Ahmadjon aka doirani shunaqa gumburlatib chalib bordiki, uning chapdastligi va iste’dodiga hamma yana bir bor qoyil qoldi.

Tez-tez tuman kutubxonasiga borib turishini aytib o‘tmasak, bo‘lmas. Zotan, u kishi eng faol kitobxon. Mutolaadan bosh ko‘tarmaydi hisob!

Keyingi yillarda Ahmadjon Ismoilov jadid bobolarimizning chinakam targ‘ibotchisiga aylandi. Behbudiy, Munavvar qori, Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon, Ibrat, Qodiriy kabi ma’rifatparvarlarimiz haqida to‘lqinlanib, ba’zan ko‘zda yosh bilan hikoya qiladi. “Jadidlar” she’ri uning oromini o‘g‘irlagan. 80 yoshli Ahmadjon bobo qaysi davraga borsa, shu she’rni aytib, olqishlar olmoqda.

Otaxonning g‘ayrat-u shijoatiga qoyil deymiz va uzoq umr, sihat-salomatlik tilaymiz!

Malik BOY MUHAMMAD,
Yozyovon

O‘ZBEK TILIM – O‘Z TILIM

Har kimning o‘z ona tili Vatan kabi aziz va mo‘tabar. Bu tuyg‘u insonga ona suti bilan singadi. Ba’zan boshqa millat vakillari bilan suhbatlashganimizda, ularning o‘zbek tiliga iliq munosabatini, samimiy mehrini ko‘rib, ko‘nglimiz yanada nurafshon bo‘ladi. Jonajon tilimiz bilan faxrlanamiz.



“Yuragimning to‘ridagi so‘lmas gulim”

Galdagi suhbatdoshimiz Ulyana Filimonova ham boshqa millat vakilasi, ammo o‘zbekchani uncha-muncha o‘zbekdan ravon gapiradi. Ayniqsa, shoirlarimizning she’rlarini shu qadar go‘zal ifoda bilan ohangdor qilib aytadiki, to‘g‘risi lol qolasiz.


Sen bo‘lmasang, nima bizga
silliq she’rlar,
Bu dunyoda tili yo‘qda
dil yo‘q derlar.
Bahoing-ku berib
ketgan Alisherlar,
Yuragimning to‘ridagi
so‘lmas gulim,
Ona tilim, kechir meni,
ona tilim!

O‘zbekning ulug‘ shoiri Muhammad Yusufning yuqoridagi she’riy parchasi Ulyana Filimonova tilida yangrashi, to‘g‘risi, qalbimni to‘lqinlantirib yubordi.

“Garchi, rus bo‘lsam-da, o‘zbek tilini o‘zimnikiday sevib ardoqlayman. To‘g‘ri, onam o‘zbekchani yaxshi gapira olmaydi. Lekin o‘zbek taomlarini qoyillatib qo‘yadi. Ayniqsa, palovni. O‘zbek qo‘shnilarimiz bilan juda ahil-inoq. “Bor tovog‘im, kel tovog‘im” qabilidagi udumlarga qattiq rioya qiladi. Tansiqroq taom pishirsa, mahalladoshlarga ilinib obchiqadi. O‘zim ham katta jamoaga ega bo‘lgan joyda ishlayman, Soliq qo‘mitasida nufuzli lavozimda. Hamma xat-hujjatlarni o‘zbek tilida yuritaman. Ishxonada o‘zaro muloqotimiz ham davlat tilida. O‘zim tug‘ilib, voyaga yetgan O‘zbekistonimni juda yaxshi ko‘raman. Shu diyorda dunyoga kelganimga doimo shukrona aytaman. Ayting-chi, o‘zbeklarday ochiq ko‘ngil, mehribon, mehnatkash, oqibatli boshqa millat bormi? Men o‘zimning millatimga, rus urf-odatlariga amal qilgan holda o‘zbeklarning ham an’analarini e’zozlayman! Boshqalarga ham ona tilingizni asrang, avaylang deyman”.

Zarnigor IBROHIMOVA
yozib oldi.

"KUZGI OLMALARNING NAFASI O'TKIR..."



Halima AHMEDOVA

KUZ TUNI KIRADI...

Kuz tuni kiradi g'amgin va go'zal,
Tinglayman yuragim larzasini jim.
Labimdan sirg'alib tushadi mahtal,
Shabnamda chayilgan bir so'z:
"Sog'indim..."

Kuzgi olmalarning nafasi o'tkir,
Jonimni yayratar bir sir muattar.
Shamolga aytaman: – Sen ham birga kir...
Kirmaydi, u mendan yuz bora qaysar.

Kuz menga eslatar bolaligimni,
Tangaday sochilgan gujum barglari.
Arg'imchoqda qolgan hur shodligimni
Olib ketdi qachon qismat dardlari?

Meni yupatmagin, ey dilkash yomg'ir,
Ko'ksimda joylangan qancha sog'inch bor.
Garchi qishloq yuki juda ham og'ir,
Kunlar jilmayardi unda baxtiyor.

Bilmaysan, sog'inchdan hapriqar jonim,
Sog'indim qishloqi qushlar sasini.
Telbaday artaman to bor imkonim,
Olis xotiramning derazasini.

ODAM KETAYAPTI...

Odam ketayapti, Havo ko'rinmas,
Ming yillik dardimga davo ko'rinmas,
Chanqagan sahroman, daryo ko'rinmas,
Rabbim, nechun ishqning
dilidan qochdim?!

Avvallar do'st edik, yuz burdi chaqmoq,
Vijdonim – chandilgan ming bitta yamoq,
Yodimdan chiqibdi dala-yu so'qmoq,
Nega, axir, Nuhning selidan qochdim?!

Haqiqat tongida bo'lgandim ayon,
Yashadim fasllar qo'ynida pinhon,
Qarayman, yolg'onga belangan jahon,
Vohki, haqiqatning yo'lidan qochdim.

Osmon bemor edi, yer edi bemor,
Huzurimga keldi qontalash bahor,
Senga ishonmayman, dedim necha bor
Va so'ngra o'ngi-yu so'lidan qochdim.

Hayot yelkamdagi og'ir tosh edi,
Vujudim dardlarga ming talosh edi,
Ko'nglim vujudimdan ancha yosh edi,
Mehribon Ajalning qo'lidan qochdim.

O'zim ham bilmayman, qanday ayolman?
Goho suv, gohida miskin shamolman,
Rabbim, bag'ishlagin, qora savolman,
Alanga edim-u, kulidan qochdim.

JUNJIKKAN KUZAK

Junjikkan kuzakning homilasiman,
Ruhim yovvoyi qush patiday to'zg'in.
Men yillar oralab neni axtardim,
Ko'z tikkan umidim o'zimdan ozg'in.

Men kutdim, milyon yil entikib kutdim,
Ey ma'yus shodligim, kelayapsanmi?!
Mening borligimni unutib qo'yib,
Bog'larning tushini supurgan sanmi?!

Sanmi, ishq daraxtin ekib ko'nglimga,
So'ng noshud bog'bonday qo'ygan quritib.
Charchadim, chamamda, sillam quridi,
Yashadim bir qultum qayg'uni yutib...

Ey ma'yus shodligim, kimdasan, bilmam,
Ko'pirasan sarob ruhiday baland.
Men esa dillasha boshladim bugun
Ufq ortidagi daraxtlar bilan.

Junjikkan ufqning homilasiman,
Ko'rinmas ruhimda birorta unsur.
Hayot chiroyli, deb shivirlar faqat
Yostig'imga tushgan parchagina nur.

MENGA NIMA BO'LDI

Menga nima bo'ldi, kulib yuribman
Dilimga sanchilgan tikanlar bilan.
O, nechun bunchalar shakarguftorman
Jonimga baloni ekkanlar bilan.

Nafratim o'ldimi?
So'ndimi o'chim?!
Tumandan quyoshni, muzdan daryoni
Tortib olgan men emasmidim...
Savalagan o'sha qora riyoni.

Bugun men shamollar uchirgan xasman
Va yoki shakarga botirilgan qayg'u.
Bolamday erkalab o'stirgan hisni
Bugun sog'inaman, qayerlarda u?

Yuragim – zulmatga quvilgan soya,
Barbodim suratin chizadi kimdir.
Boshimga, yelkamga qo'ngan xazonlar
Go'yoki holimdan olar xavotir.

Hayot g'ajib tashlar tuyg'ularimni
Va yana ko'z tikar tinmay ko'nglima.
Kuzak hayqiradi, yig'laydi yomg'ir,
Seni yomon ko'rib qoldim, Halima...

YURAGIMGA QO'NMAY TUR, XAZON...

Yuragimga qo'nmay tur, xazon,
Xotirasin yo'qotgan gullar
Tomorqamda horg'in mudraydi,
Rangi menga o'xshab ketgan kuz
Xayolimni tunga sudraydi...

Yuragimga qo'nmay tur, xazon,
U kim edi, o'chdi yodimdan,
Ammo nedir qoldi ko'nglimda,
Xazon, sen ham sezganmisan hech
Sharob ta'mi borday o'limda.

Yuragimga qo'nmay tur, xazon,
Mazax qilma, yashamoqchiman,
Qozonganda dardlarim zafar
O'nta qoqshol barmoqlarimga
O'nta yulduz taqib qo'y, zargar.

Yuragimga qo'nmay tur, xazon,
Menda umid mavj urgan damda,
Ko'rinmaydi ufqda quyosh,
Hali vaqt bor tikilma qattiq,
Teshangni qo'y, g'amgin sangtarosh.

Yuragimga qo'nmay tur, xazon,
Hadiksirab o'tyotgan yo'lchi,
Yaqinroq kel, qulog'im og'ir.
Agar bilsang, menga aytib ber,
Qaysi tilda yig'laydi yomg'ir?!


Va menga ayt, qushlar qayerda?
Ketishdimi bizga bildirmay.
Tomirimda qoning o'rnida
Nega sog'inch oqar misli may?!

Yuragimga qo'nmay tur, xazon...



OYDINLAR

CHO'LPON BILAN UCHRASHUV



Aytishim kerakki, Cho'lpon tufayli ham turkchani o'rgandim, ham turk adabiyotiga, ayniqsa, she'riyatiga oshiq bo'lib qoldim...

Mening ona tomondan bobom G'ulomqodir ota Norxo'ja eshon o'g'li 1907-yilda Toshkent shahrining Kamolon mavzesida tavallud topgan. 2006-yilda vafot etgan. Hayoti geodeziya fanini rivojlantirish va talabalarga dars berish bilan o'tgan. Ulug' ajdodimiz Abu Rayhon Beruniyning geodeziya bo'yicha ishlarini jahon ahliga tanishtirgan.

U kishi ikki yoshida onasidan, to'qqiz yoshida otasidan ayrilgan. Katta opasining qo'lida ulg'aygan. Bobom gohida menga 30-yillarda qanday yashagani, kimlar bilan uchrashib, muloqotda bo'lganini aytib berardi. Xususan, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Xislat, Munavvar qori kabi o'zbek madaniyati namoyandalari bilan suhbatlari to'g'risida so'zlab bergani esimda...

O'tgan yili bobomning bir kundaligi qo'limga tushdi. Unda ko'p esdaliklar yozilgan ekan. Quyida ana shu tarixiy yodnoma asosida bobomning Cho'lpon bilan muloqoti aks etgan bitiklarni e'tiboringizga havola qilmoqchiman.

* * *

...Cho'lpon bilan tanishuvim tasodifiy bo'lgan. O'shanda ta'lim-tarbiya texnikumida o'qirdim. Bu manzil ilgari Saidkarimboyning katta hovlisi bo'lgan ekan. Texnikum mudiri Turkiyada tahsil olgan Eson afandi edi. Unda Munavvar qori, Shorasul Zunnun, Qayum Ramazon kabi ziyolilar dars berardi. Biz o'quvchilar zarur kitoblarni Eski Jo'vadagi Turon kutubxonasidan olar edik.

Bir kuni o'sha yerga borganimda peshtaxta oldida salobatli, o'qimishli ekani bilinib turgan ko'zoynakli kishiga e'tibor qildim. Odob bilan salom berdim. U alik oldi va: "Yigitcha, siz qayerdansiz?" deb so'radi. Men ismimni aytib, toshkentlik, texnikum o'quvchisi ekanimni bildirdim. U: "Juda yaxshi. Bu zamonda o'qish kerak", dedi. Shu damda kutubxonachi Abdulla aka Nosirov ichkaridan olib chiqqan yupqaroq to'plamning muqovasiga ko'zim tushdi: "Sarvati funun". Kitobxon kishi kutubxonachiga minnatdorlik bildirib, biz bilan xayrlashdi va chiqib ketdi.

Men Abdulla akadan bu zotning kim ekanini so'radim.

– Shoir Cho'lpon. Turkcha "Sarvati funun" jurnalini oldi, bu ko'p yaxshi nashr.

Shu sabab, izlab kelgan kitobim bilan birga ushbu jurnalning bir sonini so'rab oldim. Keyin yana kelib, to'rt-beshta nashrini olib, sinchiklab o'qib chiqqan edim, turkchani ancha tushunadigan bo'lib qoldim.

Oradan ikki haftacha o'tdi, shekilli, Eski Jo'vada Cho'lpon domlani uchratib qoldim. Salom berdim. Shoir meni tanidi va alik olib, "Kutubxonaga borib turibsizmi?", deb so'radi. Men tasdiqladim. Uning yonida bir go'zal rus ayoli bor edi. Keyinroq bildimki, u shoirning xotini ekan. Shundan so'ng, yana ko'p bor domla bilan tasodifan uchrashib qoladigan bo'ldim. U kishi Hamza teatri yonidan ko'p o'tardi. Men undan turk she'riyati namoyandalari haqida so'rar edim va aniq, mushohadali javoblar olardim. Har gal, u menga "yigitcha" deb murojaat qilar edi. Uning siymosi hamon ko'z oldimda.

Aytishim kerakki, Cho'lpon tufayli ham turkchani o'rgandim, ham turk adabiyotiga, ayniqsa, she'riyatiga oshiq bo'lib qoldim. Abdulhaq Homid, Tofviq Fikrat, Rizo Tovfiq, O'rxon Sayfi, Yahyo Kamol ijodini sevar edim. Ularning ayrim asarlarini yod olganman. Shu ijodkorlar ta'sirimi, goho o'zim ham she'r qoralardim.

1925-yilda o'quv dargohimiz qulayroq bo'lgan, yangi shahardagi shinam binoga ko'chdi. Shu sababmi, Cho'lpon bilan tasodifiy, lekin ko'ngilli uchrashuvlarimiz to'xtab qoldi. Yangi binoda biz bilan Oybek, Mirkarim Osim, Homil Yoqubov ham o'qiy boshladi. Texnikumimizda "Bizning fikr" nomli devoriy gazeta chiqar edi. Bu nashrda, aytilgan ijodkorlar qatori, mening ham she'r va maqolalarim chop etib turilardi.

1927-yilda o'qishni bitirdim. Shu munosabat bilan o'quvchilarda Buxorodagi osori atiqalarni ziyorat qilish taklifi chiqdi. Men ota-onasizman, pulim deyarli yo'q, bora olmadim. Texnikumdoshlarim safar chog'idagi bir tadbirda Cho'lpon bilan uchrashibdi. Shoir ularga "Tolo yo'llarida" nomli to'plam qo'lyozmasini ko'rsatibdi. Do'stlarim undagi she'rlarni daftarlariga ko'chirib olibdi. Keyinchalik menga maqtanishdi. Men Cho'lponning o'sha barcha nazmiy asarlarini ulardan ko'chirib oldim. "Tolo" nima ekan deb o'ylab yurgandim, biladiganlar aytishdiki, andijonliklar o'z shevalarida "dala"ni shunday talaffuz qilisharkan. Vaqti-vaqti bilan shu daftarimdagi ajib satrlarni o'qib turar edim, ba'zilari yod bo'lib ketgandi:

Ko'nglimga ishonmayman,
U meni adashtirdi.
Ko'p dovonlar oshdirdi,
Qarshi ham borolmayman.

Menga egadir ko'nglim,
Boshlagan yo'li – yo'lim.
Hammasi o'shaniki,
Bir siniq shishaniki.

Sevgim susayarmikan,
O'ti pasayarmikan,
Yoki ilinchak ko'nglim
Yonib keksayarmikan?

Bu sevgim chinga ketsa,
Erkimni asir etsa,
Oh, shuni tushunganda,
Es fonari so'nganda:
"Сердце разрывается!"

* * *

Lola gulning dog'idir hasrati
dildan ketmagan,
Oshyon etib o'ziga bir nafas
tark etmagan.
Sengina ey, lolagul,
ko'p asir etding meni!
Bir uzib so'ldirmasammi,
hap qarab turgin seni!

* * *

Har bir ko'ngil havosiga berilgan,
Har bir bo'ron boronida bosh yalang,
Har bir balo hadafiga ko'ndalang,
Har sarsari sevgisiga sir bergan –
Telba ko'nglim, tentak ko'nglim,
sho'x ko'nglim.
Yo'llaringda hazar o'ldi yosh umrim.

* * *

Men ko'nglimni irg'itdim
Oyog'ingiz ostiga!
Qani, xanjar chiqaring
Men adabsiz qasdiga!

* * *

Bu esdaliklardan turli xulosalar chiqarish mumkin. Masalan, Cho'lpon Toshkentda yashagan yillari Xadra – Eski Jo'va atroflaridan, ijaraga bo'lsa kerak, uy olgan. Bu paytda u yigirma olti-yigirma yetti yashar yigit bo'lgan. Manbalarda yozilganki, u rus, turk va fors tillarini mukammal bilgan. Turk adabiyotiga, ul zamindagi siyosiy jarayonlarga juda qiziqqan. "Sarvati funun" ("Bilimlar boyligi") jurnali ayni adabiy jarayonlarni ifodalovchi nashr bo'lgan. Bu jurnal orqali barcha yangiliklardan xabardor bo'lib turgan. Chunonchi, mashhur turk shoiri Tofviq Fikrat qator yillarda unga bosh muharrir bo'lgan.

Tarixdan ma'lum, Cho'lpon nasl-nasabli bir rus qizini sevib, unga uylangan. Bu ishq ko'yida she'rlar bitgan. Oxirgi satri "Сердце разрывается" ("Yuragim parchalanadi") deb tugallangan she'r ham bunga dalil.

Bu esdalikda keltirilgan she'rlar "Dala yo'llarida" nomli to'plam ichida deb yozilgan. Lekin rasman Cho'lponning bunday kitobi chiqmagan. Menimcha, bu shoirning o'zi uchun yig'gan qo'lyozma to'plami bo'lsa kerak. She'rlarning ko'chirilib qo'lmaqo'l bo'lishi o'sha davr o'zbek yoshlarida shoirning ijodiga qiziqish nechog'lik kuchli bo'lganini yaqqol ifodalaydi.

Ozod MO'MIN XO'JA

> "Endi, ey, qardoshlar! Adabiyot o'quylik. Adiblar yetishdirayluk, "adabiyot kechalari" yasayluk. Ruh, his, tuyg'u, fikr, ong va o'y olayluk, bilayluk. Agarda "bayoz" va bema'ni bir-ikki dona kitoblar ila qolsak, mahvu inqiroziy bo'lurmiz. Yuragimiz kundan-kun toshdan ham qattig' bo'lur. Yurakni eritayluk, ruh berayluk, inqiroz bo'lmayluk. Menim bu ojizona fikrima qo'shilaturg'onlar bo'lsa adabiyotning foydasi to'g'rusinda "Oina" va "Sado"larimizga tarixiy va adabiy maqola va she'rlar yozsunlar, kitoblar tartib bersunlar. Hozirda bizga birdan-bir lozim bo'lg'on narsa – adabiyot, adabiyot, adabiyot…
>
> **CHO'LPON**

BARHAYOT SIYMOLAR

QAT'IYAT VA JASORAT SOHIBI

yoxud Bobur va Masserman qoidasi



Insoniyat o‘z tarixida hayotini xalq xizmati, yurt obodligi, davlat taraqqiyoti yo‘lida baxshida etgan hukmdorlarni ko‘p ko‘rgan. Aleksandr Makedonskiy, Yuliy Sezar, Amir Temur, Sulaymon Qonuniy, Jorj Vashington, Avraam Linkoln, Mahatma Gandi, Uinston Cherchill... Ularning har biri o‘ziga xos boshqaruv maktabi yaratgan ulug‘ siymolar sanaladi. Zotan, dunyodan qancha hukmdor o‘tgan bo‘lsa, davlat boshqaruvida ularning bir-biriga o‘xshamagan beqiyos tajribasi bor.

Boshqaruvda shaxsning o‘rni va roli beqiyos ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, mana shu o‘ziga xoslikni yaxlit bir qolipga solish, qonunlar doirasida cheklab qo‘yishning imkoni yo‘q. Har kim iste’dodi, jasorati, harakatchanligi, fidoyiligi, tezkorligi, adolatparvarligi, shaxsiy yondashuvi va boshqa jihatlari bilan ajralib turishi tabiiy hol.

Amerikadagi mashhur “Taym” jurnalida “Tarixning buyuk dohiylari” ruknida taniqli adiblar, tarixchilar, harbiylar va boshqa kasb vakillarining maqolalari doimiy nashr etib boriladi. Bu borada Chikago universiteti professori Jyul Masserman masalaga aniq mezon bilan yondashishni taklif etadi. Uning fikriga ko‘ra, sardorlar uchta vazifani bajarishi kerak. Birinchidan, ular o‘zlari boshqargan xalqni tinch va farovon hayot bilan ta’minlashi, ikkinchidan, odamlar o‘zini xavf-xatarsiz, xotirjam sezadigan jamiyat qurishi, uchinchidan, odamlarga iymon, ishonch va e’tiqod yo‘lini taqdim qilishi zarur.

Masserman shular asosida buyuk tarixiy shaxslar faoliyatini o‘rganib chiqib, quyidagi xulosani ilgari surgan: “Paster va Salk kabi dohiylar birinchi mezonga javob beradi... Aleksandr Makedonskiy, Sezar va boshqalar ikkinchi yoki uchinchi talablarga mos. Budda esa, faqatgina uchinchi toifaga mansubdir”.

Xo‘sh, ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, yurtimiz tarixidagi zakiy hukmdorlardan biri, taqdir taqozosi bilan Hindistonda buyuk saltanatga asos solgan Zahiriddin Muhammad Boburning sharafli faoliyatini qaysi toifaga kiritish mumkin?

Bobur, garchi, davlatni qilich bilan boshqargan bo‘lsa-da, doim adolatni birinchi o‘ringa qo‘ygan, saltanat manfaati yo‘lida lashkarboshi va beklariga nohaq ozor bermaslik, ularning ko‘nglini og‘ritmaslikka harakat qiladi. U o‘zi barpo etgan saltanatda tinch va osoyishta hayot hukm surishi uchun farzandlarini hamisha ahil va birdam bo‘lishga undaydi. Uning vorislari ana shu o‘gitlarga amal qilgani uchun ham Boburiylar sulolasi Hindiston tarixida o‘chmas iz qoldirgan.

Hindiston fath etilganda u o‘z solnomasiga: “...Tengri taolo ranj va mashaqqatimizni zoye’ qilmay, mundoq zo‘r g‘animni mag‘lub qilib, Hindistondek keng mamlakatni maftuh ayladi. Bu davlatni o‘zumizning zo‘r va quvvatidin ko‘rmasbiz, balki Tengrining mahzi lutf va shafqatidindur va bu saodatni o‘zumizning sa’y va himmatidin bilmasbiz, balki Tengrining ayni karam va inoyatidindur”, degan so‘zlarni darj qiladi.

Bu misol Bobur Mirzo iymon-e’tiqodda sobit podshoh bo‘lganini isbotlaydi.

Davlat boshqaruvini zimmasiga olgan hukmdor har tomonlama sog‘lom, jismonan baquvvat va kuchli bo‘lishi juda muhimdir. Shu bois Zahiriddin Muhammad Bobur o‘sha davr hukmdorlariga, temuriyzodalarga baho berishda ularning musht zarbi kuchidan tortib, qilich tutishi va kamon tortishigacha alohida e’tibor qaratgan. Jumladan, sulton Husayn Mirzo to‘g‘risida: “Shujo’ va mardona kishi edi. Borlar o‘zi qilich tegurubdur, balki har ma’rakada borlar qilich tegurubdur. Temurbek naslidin hech kim ma’lum emaskim, sulton Husayn Mirzocha qilich chopmish bo‘lg‘ay”, sulton Umarshayx Mirzo to‘g‘risida: “Ikki martaba o‘zi jami’ yigitlardin o‘zub qilich tegurdi. O‘qni o‘rta chog‘liq otar edi, bisyor zarb mushti bor edi, aning mushtidin yigit yiqilmog‘on yo‘qdur”, sulton Ahmad Mirzo to‘g‘risida: “Shijoati bor edi, ...ma’rakalarda andin asari shijoat zohir bo‘lur ekandur”, degan fikrlarni bayon qiladi.



> **Boburning tashabbuslari Hindistonda yangi bir madaniyat va hukumat tizimini shakllantirishga olib keldi.**
>
> **Javoharlal NERU**

Bobur Mirzo tasavvuridagi hukmdor bir so‘zli, qat’iyat va jasorat sohibi, sobitqadam bo‘lmog‘i, har qanday tadbirga puxta o‘ylagan holda qo‘l urmog‘i va uni oxiriga yetkazmog‘i lozim. Xususan, u sulton Husayn Mirzo ichki nizolarni bostirish maqsadida Xusravshohga qarshi ikki marta ot solib, podshohlik azmini bajo keltira olmagani tufayli o‘g‘illari va beklari oldida obro‘sini yo‘qotganini achchiq iztirob va alam bilan qayd etadi.

Uning nazarida, hukmdor qo‘li ostidagilarning boshini qovushtirib, ularga ta’sir o‘tkaza oladigan, mustahkam irodali shaxs hamda fikrini o‘zgalarga aniq-ravshan tushuntiradigan kuchli notiq bo‘lmog‘i lozim. Bobur Mirzo bu borada ham ko‘pchilikka o‘rnak va namuna edi. U Hindistonda mahalliy aholini tamg‘a solig‘idan ozod qilib, odamlarga yengillik beradi. Bir vaqtlar sulton Abusaid Mirzo Xoja Ahror Valiy maslahatiga binoan shu tajribani qo‘llagani natijasida xalqning moddiy sharoiti yaxshilanib, el orasida hukmdorning mavqeyi oshganini ta’kidlaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur mamlakat yetakchisi o‘qimishli, mushohadasi keng, ma’naviy barkamol inson bo‘lishi lozimligiga alohida e’tibor qaratib, jumladan, Mirzo Ulug‘bekni “Din va dunyoning tayanchi, donishmand kishi edi”, deya ta’riflaydi hamda uning hukmronligi davrida Samarqandda juda katta qurilish va obodonchilik ishlari amalga oshirilganini faxr bilan tilga oladi.

Boburning nazarida saltanatni boshqarish ulug‘ a’mol bo‘lsa-da, ammo unga ega bo‘lmoq va hokimiyat jilovini qo‘lida saqlab turmoq uchun insoniy qadriyatlarni poymol etish aslo mumkin emas. U toj-u taxt ilinjida padarkushlik, birodarkushlik va farzandkushlik kabi og‘ir jinoyatlar botqog‘iga botishni gunohi azim deb biladi. “Boburnoma” asarida ana shunday tubanliklarga qo‘l urgan Abdullatif Mirzo, sulton Mahmud Mirzo, Xusravshoh va Xadichabegim kabi shaxslar shayton vasvasasiga uchgan yuzi qaro insonlar sifatida talqin etiladi.

Buyuk hukmdor asossiz qirg‘inbarotlarni, xalqni talon-toroj qilishni keskin qoralaydi va bu masalalarga o‘zining qat’iy munosabatini bayon qiladi. Jumladan, mo‘g‘ul ulusining “bossa ham va yoki ma’lum bir hududdan qochib chiqsa ham” yurtni talab ketishi haqida nafrat bilan yozadi.


“Boburnoma”da qayd etilishicha, boshqaruvda asosiy mas’uliyat hukmdor zimmasida bo‘lmog‘i, har bir hukm uning nomidan chiqmog‘i, beklar esa uni so‘zsiz ijro etmog‘i lozim. Zero, bu davlatchilikning asosiy tamoyilidir. Asarda Shayboniyxon sulton Ali Mirzo va uning piri o‘ldirilgani uchun barcha aybni beklarining zimmasiga yuklaganini qattiq qoralab: “beklar o‘z xonlari bilan maslahatlashmay bunday ishlarni qilsalar, xonlikka ne e’tibor qolishi mumkin”, deb kesatadi.

Bobur Mirzo taqdir hukmi va davrning evrilishlari tufayli olis va begona bir yurtda, o‘zga din va rasm-rusumlarga amal qiluvchi xalqlar yashaydigan ulkan hududda saltanat barpo etishga muvaffaq bo‘ldi. Ana shunday murakkab sharoitda u o‘zi, saroy a’yonlari, bek va hokimlar, askarlari e’tiqod qiladigan islom dinini asrab-avaylash bilan bir qatorda, millatlar o‘rtasida totuvlikni, dinlararo bag‘rikenglikni rivojlantirishdek g‘oyat murakkab va o‘ta nozik vazifani ham sharaf bilan ado etdi.

U hind yurtida siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish, raiyatni yagona bayroq ostida birlashtirish, turli din va millat vakillari, mazhablar o‘rtasidagi nizo, adovatlarga chek qo‘yish, xalqlarning sha’ni va qadriyatlarini munosib himoya qilishga alohida e’tibor qaratdi va bunga erishdi. Shu bois ham uning sharafli nomi bashariyat tarixi zarvaraqlariga abadul-abad oltin harflar bilan bitilgandir.

Muhammadqosim OLIMOV,
O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Buxoro viloyati kengashi raisi

“BOBURNOMA” DANTE DIYORIDA



Boshlanishi 1-sahifada.

“Boburnoma” o‘zida xalqimizning azaliy qadriyatlari, intellektual va ma’naviy olami xazinalarini ko‘zgu misoli aks ettiradi.

Ushbu nashr o‘zbek va italyan xalqlari o‘rtasidagi adabiy va madaniy-gumanitar hamkorlik aloqalarining samarali va yorqin namunasi sifatida dunyoga keldi.

Kitob davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning So‘zboshisi bilan ochiladi.

Ma’lumki, “Boburnoma” ko‘p asrlar davomida turli ilmiy yo‘nalishlardagi Sharq va G‘arb tadqiqotchilarining e’tiborini o‘ziga tortib keladi. Dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan ushbu nodir kitob endilikda birinchi bor italyan o‘quvchilariga ham taqdim etilmoqda.

Asarni italyan tilida nashr etish jarayonlariga mazkur nashriyot rahbari Sandro Teti boshchiligidagi malakali tarjimonlar, muharrirlar va dizaynerlarning katta guruhi jalb etildi. Kitobni tayyorlashda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik Shuhrat Sirojiddinov va italiyalik taniqli turkolog, professor Federiko De Rensi ilmiy va adabiy muharrirlar sifatida ishtirok etdi. Ayni vaqtda ushbu loyihani amalga oshirishda O‘zbekistonning Italiyadagi elchixonasi xodimlari ham yaqindan amaliy yordam berganini qayd etish lozim.

Atoqli italyan olimi va adibi Franko Kardini tomonidan yozilgan kirish so‘zida Bobur “So‘z san’atiga mehr qo‘ygan buyuk hukmdor yoxud saltanatni sevgan buyuk adib”, deb ta’riflanadi. “Boburnoma”ni o‘qishga jazm qilgan yevropalik kitobxon undan bosh ko‘tarolmay qolishi shubhasiz. Shu asnoda insonparvar papa Piy II – Enea Silvio Pikkolominining “Izohlar”i, imperator Pyotr Leopold Gabsburgning avtobiografik mulohazalari beixtiyor xayolga keladi; ba’zan o‘quvchi o‘zini Montenni, ba’zan esa Marko Polo yoki Buyuk Fridrix yoxud Melvillni mutolaa qilayotgandek his etadi”, deb ta’kidlaydi Kardini.

Tarjimon Federiko Pastore kitobga yozgan sharhida “Boburnoma” “o‘z davrining kundalik hayotini qayta tiklashga imkon beradigan, islom tamadduniga xos avtobiografik asarning ilk rostgo‘y namunasi” ekaniga alohida urg‘u beradi.

Asar akademik Sh.Sirojiddinov, Q.Ma’murov, Z.Teshaboyevalar tomonidan 2024-yilda asliyatdan ingliz tiliga tarjima qilinib, “Anor” nashriyotida chop etilgan nusxasidan italyan tiliga o‘girildi.

Ushbu nashr Bobur Mirzo yodnomalarining barcha xususiyatlarini imkon qadar ko‘proq va to‘liqligicha saqlab qolgan holda, boburiylar davriga oid 96 ta badiiy miniatyura bilan bezatilgan. Bu suvratlar o‘sha zamon uchun tarixiy, geografik, etimologik omillarni to‘liq hisobga olgan holda, kitob qahramonlarining xarakterlari va ichki dunyosini haqiqiy, realistik tarzda ochib beradigan rangtasvirning ilg‘or yo‘nalishi o‘laroq teran ma’nosi, ranglar jilosi va nafis bezaklari bilan ajralib turadi.

Shu kunlarda janob Sandro Teti yurtimizda mehmon bo‘lib turibdi. “Jadid” gazetasi muxbiri u kishi bilan suhbatlashib, mazkur kitob to‘g‘risida, xususan, nashriyotning O‘zbekiston bilan bog‘liq rejalari haqidagi fikrlarini yozib oldi. Quyida ushbu suhbatdan parcha e’lon qilinmoqda. Suhbatning to‘liq matni va audio-video shakli bilan gazetaning rasmiy sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida tanishish mumkin.

* * *

Sandro TETI:

Avvalo, shuni alohida ta’kidlashim kerakki, mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi uchun juda muhim va sharafli bo‘lgan bu loyihani ro‘yobga chiqarganimizdan behad mamnunman. “Boburnoma”dek buyuk adabiy-tarixiy asarning shu mahalgacha italyan tilida tarjimasi mavjud emasligidan, ochig‘i, uyalib yurardik. Bugungi katta xursandchiligimning boisi shuki, bu asarning to‘liq tarjimasi va nashrini aynan bizning nashriyotimiz amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldi.

Yana bir muhim jihatni aytib o‘tmoqchiman. Biz bu noyob asarni italyan tiliga ingliz tili orqali tarjima qildik. To‘g‘ri, “Boburnoma” shu kunga qadar bir qator taniqli ingliz va amerikalik olimlar tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. Lekin hozirga qadar u o‘zbek boburshunoslari tomonidan jahonning bu yetakchi tiliga tarjima qilinmagan edi.

Yaqinda akademik Shuhrat Sirojiddinov rahbarligida o‘zbek tilshunoslari va turkologlari jamoasi tomonidan “Boburnoma” ingliz tiliga tarjima qilindi. Mening nazarimda, bu ish sharqshunoslik ilmi va badiiy tarjima sohasidagi ulkan voqea bo‘ldi. Zero, o‘zbek olimlarining asliyatdan, ya’ni eski o‘zbek tilidan ingliz tiliga qilgan tarjimasi, o‘ylaymanki, o‘quvchiga asar mohiyati va salobatini imkon qadar to‘liq aks ettirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham nashriyotimiz aynan ushbu tarjimani asos qilib olishga qaror qildi.

Quvonchimning yana bir sababi shuki, “Boburnoma” italyan o‘quvchilari orasida tez tarqalmoqda, u allaqachon mamlakatning ko‘pgina kutubxonalari fondlaridan munosib joy egalladi. O‘zbekiston tarixiga qiziquvchilar, shuningdek, Markaziy Osiyo, Hindiston, Pokiston va Afg‘oniston tarixi bilan shug‘ullanayotgan olimlar bu nashrga jiddiy e’tibor va qiziqish bildirmoqda. Menimcha, bu juda katta yutuq.

Negaki, “Boburnoma”da mazkur o‘lkalarning tarixi, tabiati, ularni makon tutgan xalqlar etnografiyasiga oid o‘ta noyob ma’lumotlar keng o‘rin olgan. Bobur shaxsan o‘zi ko‘rgan, guvohi bo‘lgan voqea-hodisalarni haqqoniyat va mahorat bilan qalamga olgani bilan ham bu asar o‘ta qimmatlidir.

Shu o‘rinda alohida ta’kidlab o‘tishim kerakki, Italiyada bugungi kungacha buyuk Bobur yaratgan imperiyani “Mo‘g‘ullar davlati” deb atab kelguvchilar ham bor. Bizning tarjimamiz va nashrimiz ushbu tarixiy adolatsizlik va xatolikni to‘g‘rilashga, mazkur imperiyani ilmiy haqiqatga mos ravishda “Boburiylar saltanati” deb atashga zamin yaratadi.

“Boburnoma”dek ulug‘ asarning kitobxonlar orasida keng targ‘ib qilish bizning yana bir muhim vazifamizdir. Biz uning keng ko‘lamli sotuvini tashkil qilishdan tashqari, sifatli targ‘ibotini ham boshladik. Kitobning ilk xalqaro taqdimoti joriy yilning 4-dekabr kuni Rim shahrida bo‘lib o‘tadi. Tadbirda xalqaro va italyan ilmiy jamoatchiligi vakillari, mutaxassis-olimlar, professorlar qatorida O‘zbekiston Respublikasining Italiyadagi elchisi janob Abat Fayzullayevning ham ishtirok etishi kutilmoqda. Marosimda “Boburnoma”ning italyancha nashrini kamina, shuningdek, Florensiya va Parij universitetlari professori Franko Kardini birgalikda ishtirokchilarga taqdim etishni rejalashtirganmiz.

Albatta, kitob targ‘iboti shu birgina taqdimot bilan cheklanib qolmaydi. Biz 14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun munosabati bilan ikki joyda – Rim shahrida joylashgan La Sapiyensa universitetida (aytish joizki, bu dargoh talabalar soniga ko‘ra Yevropada birinchi o‘rinda turadi), shuningdek, Italiyaning eng nufuzli ta’lim maskanlaridan bo‘lmish Neapol universitetida ham taqdimotlar o‘tkazishni ko‘zlamoqdamiz.

Neapoldagi Sharq universiteti sharqshunoslik sohasi bo‘yicha G‘arb dunyosidagi eng qadimiy muassasalardan biri bo‘lishi bilan birga, bugungi kunda yuksak ilmiy salohiyati bilan ham alohida ajralib turadi. Eng muhimi, ushbu universitet hozirda turkiy dunyoni o‘rganish bo‘yicha xalqaro markazlardan biri sanaladi. Bu dargohda qadimgi turkiy tillarni, jumladan, zamonaviy o‘zbek tilini ham mukammal biladigan italyan olimlari ilmiy faoliyat olib bormoqdalar.

O‘zbek do‘stlarimiz bilan hamkorlikda amalga oshirgan nashrimiz kelgusidagi katta ishlarning boshlanishi, deb o‘ylayman. Nega desangiz, albatta, Bobur tarixda o‘tgan buyuk siymolardan biri, biroq u yagona shaxs emas. Mamlakatingiz nihoyatda boy tarixiy va madaniy merosga egadir. Masalan, Mir Alisher Navoiy hazratlarini olaylik. Biz ayni kunlarda Navoiyning “Lison ut-tayr” asari tarjimasi va nashri ustida ishlamoqdamiz. Umuman olganda, mumtoz va zamonaviy o‘zbek adabiyoti, she’riyati, ilm-fani shunchalar keng va olamshumulki, bizning bu boradagi ishlarimiz hali yana uzoq davom etadi, degan umiddaman.

O‘zbekistonning G‘arb dunyosidagi ishonchli hamkorlaridan biri – bu Italiya davlatidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev janobi oliylarining mamlakatimizga qilgan rasmiy tashrifi chog‘ida O‘zbekiston va Italiya o‘rtasida strategik hamkorlik to‘g‘risida bitim imzolangani buning yaqqol dalilidir. Ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish – bu, albatta, muhim, ayni chog‘da biz madaniy-gumanitar aloqalarni, xususan, turizm, adabiyot va san’at, kino kabi sohalarda o‘zaro almashinuvni kuchaytirishimiz maqsadga muvofiq, deb o‘ylayman. Shu munosabat bilan davlatlarimiz o‘rtasidagi aloqalarni, ta’bir joiz bo‘lsa, men jangovar hamkorlik, degan bo‘lardim. Bunday deyishga yetarlicha asoslarim bor.

Bizni qiziqtirgan mavzulardan yana biri o‘zbek xalqining nafaqat Yevropani, balki butun dunyoni fashizm balosidan xalos etishga qo‘shgan hissasi bilan bog‘liq. Hozirgi paytda o‘zbek partizanlarining Yevropadagi qahramonliklari haqidagi noyob tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan kitob ustida ishlamoqdamiz.

1943–1945-yillarda nemis va italyan fashistlari Italiyani istilo qilib turgan bir paytda Italiya ichkarisida ularga qarshi qudratli partizanlik harakati vujudga keladi. O‘shanda nemis asirligidan qochishga muvaffaq bo‘lgan bir qancha o‘zbek harbiylari bizning mahalliy partizanlar safiga kelib qo‘shiladi va Italiya ozodligi uchun jasorat bilan kurashadi. Ularning ayrimlari qonli janglarda halok bo‘lgan, tirik qolganlaridan ko‘plari Italiya va O‘zbekistonning yuksak mukofotlari bilan taqdirlangan.

Men Prezidentingiz tashabbusi bilan Toshkent shahrida barpo etilgan “G‘alaba bog‘i”ni ziyorat qilganimda, u yerdagi “Shon-sharaf” muzeyida aynan Italiya tuprog‘ida jang qilgan qahramonlar nomi borligini ko‘rib, faxr va g‘ururga cho‘mdim. Quroldosh birodarlar ekanimizni chin yurakdan his qildim.

Yuqorida aytganimdek, biz hozirgi kunda Italiyaning fashizm balosidan ozod etilganining 80 yilligiga bag‘ishlab maxsus kitob-albomni nashrga tayyorlamoqdamiz. Unda o‘zbek xalqi vakillarining Yevropa, xususan, Italiya ozodligi uchun olib borgan mardonavor kurashi ham yoritiladi. Biz bu borada ilgari ma’lum bo‘lmagan juda qiziqarli faktlardan foydalanmoqchimiz. Kitobda partizanlar safida jang qilgan o‘zbekistonlik jangchilarni nomma-nom eslashdan tashqari, yurtingizda, front ortida turib g‘alabaga hissa qo‘shgan oddiy xalq matonati haqida ham ma’lumot beriladi. O‘zbek xalqi front uchun qurol-yarog‘ ishlab chiqargan, yarador jangchilarni davolab, hayotga qaytargan, yuz minglab qochqinlar, yetim qolgan bolalarga boshpana bergan bag‘rikeng va olijanob xalqlardan biri hisoblanadi. Maqsadimiz ushbu tarixiy haqiqatni barcha yevropalik o‘quvchilar e’tiboriga yetkazish, ularni bundan xabardor qilishdir.

Mazkur kitob taqdimoti doirasida O‘zbekistonning fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi atroflicha yoritiladigan keng ko‘lamli xalqaro ilmiy-amaliy simpozium o‘tkazishni ham rejalashtirganmiz. Anjumanda o‘zbek va italyan rasmiy doiralari vakillari, tarixchi olimlarining ishtiroki kutilmoqda. Gap shundaki, fashizm ustidan g‘alaba haqida gap ketganda, asosan sobiq Sovet Ittifoqi nazarda tutiladi. Holbuki, adolat nuqtayi nazaridan olganda, bu g‘alabaga o‘zbekistonliklar ham munosib hissa qo‘shgan. Xalqaro hamjamiyat bu haqiqatdan, albatta, xabardor bo‘lishi zarur, deb hisoblayman.

Suhbatni
Zarnigor IBROHIMOVA
yozib oldi.

MULOHAZA

KITOBSIZ UY

Bugungi kunda Xorazm viloyatida 16 ta nashriyot bor, ularda har yili o‘rtacha 500 nomdagi kitob chop qilinyapti. Ammo...



Elatlik ayol maslahat so‘rab kelibdi. Kayfiyati inqadar – yig‘lab yuboray deydi: “Erim chetda ishlab topgan pullarini oy sayin yuboradi. “Taxini buzmay to‘pla!” deb har safar tayinlaydi. Orzumiz – yengil mashina olish edi. Mana bu kasofatni qarang!”

Ayol yig‘lamsirab sichqon kemirgan bir taxlam dollarni ko‘rsatdi. Eski daftar muqovasiga o‘ralgan dollarni sichqon jonivor bir chekkasidan maza qilib yegan... Yog‘och sandiq ham tishi o‘tkir kemiruvchidan himoya qila olmagan.

“Erim bilsa o‘ldiradi, maslahat bering! Bularni bankda almashtirib olsa bo‘larmikan?”

Bankda ishlaydigan tanishlarimga qo‘ng‘iroq qildim. Aytishdiki, raqamlari butun saqlangan bo‘lsa, almashtirib berishadi. Xizmat uchun to‘lov bor ekan.

Ayolning yuziga qon yugurdi: “To‘layman! Dollarimni almashtirib berishsa bo‘lgani”.

Ketar chog‘ida maslahat berdim: “Aqchangizni qalinroq kitob ichida saqlang, sichqon zarar yetkaza olmaydi”.

Ayol angrayib qaradi: “Uyimizda kitob yo‘q-da!”


ZIYOSIZ UY

Xonqalik mebelsozlar vohada tayyorlanayotgan mebellarning deyarli yarmini sanoatlashgan asosda ishlab chiqarishyapti. Buyurtma bo‘yicha xonalar o‘lchamiga mos mebellar tayyorlash, uni yetkazib berish, o‘rnatish xizmati yo‘lga qo‘yilgan. Ammo... yuzlab tur mebellar orasida kitob javoni yo‘q. Chunki: “Kitob javoniga talab yo‘q. Buyurtma berishmaydi...”

Ayolning yozda uyini ta’mirlatganini ko‘rgandim. Ko‘cha tomoniga bel bo‘yi beton quydirib, ustiga guldorbruschatka qoplashdi, darvozasining ikki tomoniga hashamatli ustunlar o‘rnatishdi, eshig-u deraza romlari zamonaviy “akfa”ga almashtirildi. Tomidagi shiferni temir qoplamaga o‘zgartirib, har to‘rt burchagiga ajabtovur kungira ham tiklashdi.

Uy emas saroy bo‘ldi. Ko‘rsangiz havasingiz keladi.

Tashqarisi shunday ekan, ichkarisi qandayligini tasavvur qildim. Xonalariga ko‘zni qamashtiradigan gilamlar to‘shalgan, zamonaviy mebellar bilan bezatilgan. Yaltiroq javonlarda chinni idishlar qatorlashtirilib terilgan.



Hamma narsa bor, faqat kitob yo‘q!

Kitob javoni yo‘q!

Mavridi keldi, aytib ketaylik. Hozirda tadbirkorlar xalq hunarmandchiligi an’analari asosida necha yuz turli jahoniy andozalar bilan raqobatlasholadigan mebellar ishlab chiqarishmoqda. Xorazmda bu borada xonqalik mebelsozlar oldinda. Ular vohada tayyorlanayotgan mebellarning deyarli yarmisini sanoatlashgan asosda ishlab chiqarishyapti. Yangi imorat qurganlar, to‘y berayotganlar buyurtmalari bo‘yicha xonalar o‘lchamiga mos mebellar tayyorlash, uni yetkazib berish, o‘rnatish xizmati yo‘lga qo‘yilgan. Ayniqsa, to‘y mavsumida mebelsozlarning qo‘li-qo‘liga tegmaydi – ikki-uch oy oldin buyurtma bermasangiz g‘aflatda qolasiz.

Mebelsozlar ikki va hatto uch qavatli do‘konlarining keng salonlarida o‘zlari ishlab chiqarayotgan mebellar namunalarini namoyish va reklama uchun qo‘yishgan. Ko‘rib, hayratingiz oshadi – go‘yo Luvr muzeyiga kirib qolgandek bo‘lasiz. Iqtisodiy islohotlar tufayli xalq hunarmandchiligiga keng yo‘l ochilgani, barcha sharoitlar yaratib berilgani sharofatidan bu!

Ammo, ko‘rgazmani qayta va qayta aylaning... yuzlab tur mebellar orasida kitob javoniga ko‘zingiz tushmaydi. Tadbirkor ajablanishingizga javoban yelka qisadi: “Kitob javoniga talab yo‘q. Buyurtma berishmaydi...”

Ikki-uch yil oldin Xorazm viloyati hokimligi tashabbusi bilan mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan kelin-kuyovlarga “Baxt to‘yi”da beriladigan mebellar to‘plami orasida, albatta, kitob javoni bo‘lishi va kitoblar to‘plami bilan birgalikda sovg‘a qilish an’anasi boshlangandi. Bu yangilik vaqtli matbuotda, mahalliy “oynayi jahon”da rosa targ‘ib qilindi. Javon to‘la kitoblarni to‘y sovg‘asi sifatida olgan baxtli oilalar reklamalari ancha muddat tinmay aylantirildi va ko‘p o‘tmay hammasi unutildi. Nega?

Hokimlik boshlagan ezgu tashabbus ijrosi uchun joylardagi mas’ullar – mahalla fuqarolar yig‘inlari raislarida hafsala yetishmadi, bizningcha. Yanada to‘g‘rirog‘i (achinarlisi), kitobdan ko‘ra hashamni yaxshi ko‘radigan ko‘pchilik ekan. Kitob javoni va kitoblar to‘plamini to‘yona sifatida berishganida burnini jiyiradigan qudalar ham topilgan, albatta.

Bu yangilikdan ruhlanib: “Gurjilarda yangi turmush qurayotgan yosh oilaga Shota Rustavelining “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” mumtoz asarini to‘yona qilish an’anasi bor, qani bizda ham yosh kelin-kuyovlarga Navoiy hazratlarining “Xamsa”sini to‘yona qilishni an’anaga aylantirsak”, degan mazmunda maqola yozganman. Afsus...

SANOQLI KITOB

Kattagina mahallamizning biz qo‘nim topgan elatidagi uchta ko‘chada bir yuz yigirma chog‘li xonadon bor. Bilamanki, shu xonadonlarning ko‘pi bilan o‘n beshtasida kitob bor.

Sanoqli kitob! (Umrim bo‘yi to‘plagan boyligim – besh ming dona kitob bugun qishloq kutubxonasi fondida ham yo‘q).

Kitoblarim orasida bundan yarim asr ilgari maktab ma’muriyati tomonidan a’lo baholarga o‘qiganim, jamoat ishlarida faol qatnashganim uchun mukofot tariqasida berilganlari ham bor. Ularni qayta va qayta mutolaa qilish asnosida o‘quvchilik davrim yodimga tushadi.

Hozirda maktablar ma’muriyati a’lochi o‘quvchilarga kitob o‘rniga yaltiroq “tashakkurnoma”, “ehtirom yorlig‘i”, “faxriy yorliq”lar berishni rusumga kiritishgan. O‘sha “tashakkurnoma”lar chiroyli yog‘och jildlarga joylashtiriladi. Buning uchun oz mablag‘ sarflanmaydi. (O‘sha yog‘och jild puliga bir nechta kitob xarid qilish mumkin). Undan ko‘ra kitob bilan taqdirlash ming marta afzal-ku! Ham o‘quvchiga bir umr esdalik bo‘ladi, ham o‘zi va kelgusida farzandlari shu kitoblarni o‘qishadi.

Shu o‘rinda ayrim maktab va boshqa tashkilotlarda onda-sonda bo‘lsa-da kitob bilan taqdirlash an’anasi saqlanib qolganligini e’tirof etish kerak. Ammo bu borada ham e’tirozli o‘rinlar ko‘p. Ma’murlar qaysi kitoblarni sovg‘a sifatida berish kerakligiga e’tibor qaratishmaydi. (O‘zlari o‘qishmagani uchun dunyoqarashlari pand beradi, desak haqorat hisoblanmas!) Mahalliy nashriyotlarda chop qilingan, badiiy saviyasi haminqadar kitoblarni mahalliy ijodkorlardan arzon narxlarda sotib olishni ma’qul ko‘radilar. Mumtoz yoki zamonaviy adabiyotimiz darajasini belgilaydigan asarlarni sovg‘a sifatida berish haqida bosh qotirishmaydi. Shundan saviyasi past kitob nusxalarini sovg‘a yoki mukofot tariqasida olgan o‘quvchi yoki o‘qimay, bir chekkaga tashlab qo‘yadi yoki o‘qishga vaqt topganlari tasavvurida “adabiyot shu ekan-da!” degan g‘arib fikr paydo bo‘ladi.

Oldinlari maktab darsliklari ommaviy ravishda chop qilinar, o‘quvchilar ularni sotib olishardi. Shu taxlit har sinfda o‘qib-o‘rganган kitoblar o‘zining mulkiga aylanib, uyida bir umr turardi. (Hozir ham uyimizda o‘sha davr darsliklari saqlanmoqda). Bularni ukalari, farzandlari qiziqib qo‘liga olishlari, mutolaa qilishlari mumkin bo‘lardi. Buyam kitobga qiziqishni bolalikdan shakllantirishga ma’lum ma’noda xizmat qilgan. Ular orasida adabiyot darsliklari borligi mumtoz va zamonaviy adabiyotni o‘rganishda, tarix darsliklari esa o‘tmishimizdan bir qadar xabardor bo‘lishda qo‘l kelardi, albatta. Tabiiy fanlar bo‘yicha chop qilingan darsliklar ham hayotda ba’zida kerak bo‘lganiyam rost.

Keyinchalik kitoblarni ijaraga berish tartibi sabab ko‘pgina xonadonlar kitobsiz uyga aylanib qoldi...

KITOB DO‘KONI QAYDADIR?

Bugun viloyatda 13 ta axborot-resurs markazi hamda 662 ta kutubxona mavjud.

Aholisi bir yuz yetmish minglik nufuzga yetgan Bog‘ot tumanida bugun qancha kitob do‘koni bor? Yaqin-yaqinlargacha tuman markazidagi yagona hisoblanmish kitob do‘koni javonlari kitoblarni ko‘tara olmasdi. O‘sha kitob do‘koni sotuvchisi Qutlimurod aka mashhur insonlar qatorida tilga olinar, to‘y davralari to‘rida o‘tirardi. Tuman markaziga yo‘limiz tushsa vaqt topib kitob do‘koniga mo‘ralab, yangi kelgan kitoblar bor-yo‘qligi bilan qiziqardik.

Prezidentimizning kitob mutolaasiga e’tiborlari natijasi o‘laroq joylarda yangi kitob do‘konlari ish boshladi.

Kitob do‘konlari soni oshdi, ammo mutolaa madaniyati to‘la shakllandi, deb aytishga hali bir-ikki qovun pishig‘i bordek, nazarimda. Bugun aksar kitob savdo rastalari boloxonador do‘konlarning bir burchagini egallagan, xolos. Peshtog‘iga o‘qlog‘dek harflar bilan “Kitob do‘koni” deb yozib qo‘yilgan binolarning katta qismi qurilish yoki oziq-ovqat mahsulotlari savdosiga mo‘ljallangan marketlardan iborat.

O‘sha mashhur kitob do‘koni egasi Qutlimurod aka farzandlari ochgan kitob do‘koni rastasida ham shu hol...

Mahmud Zamaxshariy nomidagi Xorazm viloyati axborot-kutubxona markazi rahbari Rahimboy Qurbonov chin ma’noda umrini kitob targ‘ibotiga bag‘ishlagan inson. Bugun viloyatda 13 ta axborot-resurs markazi hamda 662 ta kutubxona mavjud. Kitob fondi yildan yilga boyib boryapti. Rahimboy Qurbonov rahbar bo‘lgan axborot-kutubxona markazi ish tajribasi respublikaning bir qator viloyatlarida ommalashtirilyapti. O‘z navbatida kutubxonalardan foydalanayotgan kitobxonlar soni ham oshmoqda, ammo biz istaganchalik emas. Kitobxonlar orasida yoshlar (talabalarni istisno qilsak) nisbatan kam.

Yarim yilcha oldin aynan ma’naviyat sohasida ishlaydigan, yig‘ilishlarda kitob haqida og‘iz ko‘pirtirib gapirishga chechan bir rahbar tashkillashtirayotgan tadbiri bo‘yicha maslahatlashish uchun keldi. Tadbir kitobxonlik madaniyati mavzusida ekan. Bilganimcha tavsiya va maslahat berdim. Suhbat orasida kitob javonimdan tarixiy mavzudagi bir kitobni dastxat qo‘yib sovg‘a qildim.

Mehmon ketgach, qarasam sovg‘a qilgan kitob o‘tirgan joyida qolib ketibdi. Xijolat chekib, qo‘ng‘iroq qilib kitobni unutib qoldirganini eslatdim va u aytgan gapdan so‘ng adashganimni bildim: “Kitob o‘qishga vaqt qani? Qiziqadigan birovga berarsiz...”

Po‘lat Bobojonov viloyatga hokimlik qilgan davrlarda xizmat vazifam taqozosi bilan qabuliga kirganimda bir gap aytganlar: “Mening yonimga kitobsiz kirmang!” (U kishining tavsiyasi bilan yurt tarixi, elning iqtidorli kishilari haqida ikkita kitob ham yozganman). Har safar qabuliga borishdan oldin u kishi o‘qimagan kitoblarni topishga urinardim. Urinishlarim bekor ketardi – u kishi o‘qimagan kitob yo‘q hisobi edi.

Aynan shu ziyoli inson rahbarlik qilgan yillarda viloyatda ko‘plab kitob do‘konlari ishga tushirildi. Hatto “ayirboshlab o‘qish”-da qo‘l keladigan “bukinist” kitob do‘koni ham ish boshlagan. Yaqinda o‘sha do‘konga yo‘lim tushdi va bu do‘kon ham boshqalariga o‘xshab “aralash savdo” maskaniga aylanganini ko‘rdim va ortimga qaytdim...

Kitobli uylar nega ko‘paymayapti?

MUTOLAA MADANIYATI

Valyutasini yangisiga almashtirgan bankka yondosh “Kitob do‘koni”ga ko‘zi tushmabdi.

Maktabda o‘qib, yodlaganimiz “kitob – oftob” sifatlashi shuurimizga singib ketganidan biror joyga mehmonga borsam xonadonda kitob (kitob bor joyda kitob javoni ham, albatta, bo‘ladi) bor-yo‘qligiga sin solaman va kamdan kam hollarda ko‘nglim to‘lib chiqaman.

Prezidentimizning bu borada farmoyishlari amalda! Kitob targ‘iboti uchun mas’ul tashkilotlar yetarlicha, hatto me’yordan ortiqroq. Ilgari faqat poytaxtda sanoqli nashriyotlar faoliyat yuritgan bo‘lsa, bugun hatto tumanlarda ham xususiy nashriyotlar ochilgan. Birgina Xorazmda 16 ta nashriyot bor, ularda har yili o‘rtacha 500 nomdagi kitoblar chop qilinyapti. Ammo...

Bir asr ilgari “tariximizning kir va qora kunlari – so‘nggi xon zamonlaridan” (Abdulla Qodiriy) meros johiliyatni yo‘q qilish uchun maydonga chiqqan jadid bobolarimiz ishni mutolaadan – vaqtli nashrlar tashkil etish, kitoblar chop qilishni yo‘lga qo‘yishdan boshlashgan. Ular taraqqiyotning poydevori ilm-ma’rifat ustiga qurilishini yaxshi bilishgan. Ilm-ma’rifatning o‘chog‘i – ilk xamirturushi esa kitobdir!


Mutolaa madaniyati rivojiga yangicha texnologiyalar – ijtimoiy tarmoqlar taraqqiyoti soya tashlagani haqida ko‘p gapiriladi. Go‘yo bu holat butun dunyoda kuzatilayotgan illat, deb qo‘shib ham qo‘yishadi. Aslida dunyoning rivojlangan davlatlarida o‘sha yangicha texnologiyalar (ijtimoiy tarmoqlar) kitobxonlik madaniyatiga putur yetkaza olmagani ham bor gap. Bugun taraqqiyot mezoni “eshakaravadan sakrab, uchar ulovlarga o‘tgani” bilan har ikkilasida o‘tirgan yo‘lovchi uchun maqsad – borar manzil bir ekanligi –insonning ichki va tashqi dunyosi diniy va axloq uyg‘unligi o‘laroq fozil insonni tarbiyalash, insoniyatni asrab qolish kerakligidan iboratligini unutmaylik! Ushbu mezonlarga mos tarbiya jarayonida mutolaa birinchi o‘rinda turadi.

Elatlik ayol sichqon kemirgan dollarini yangisiga almashtirdi va minnatdorlik bildirish uchun kelib “Haliyam yangi kitoblar chiqyaptimi, biror joyda sotiladimi?” deb so‘radi. Valyutasini yangisiga almashtirgan bankka yondosh “Kitob do‘koni”ga ko‘zi tushmabdi.

Dollarlarini sichqonga yedirmay saqlash uchun mendan bir dona kitob olganiga nima deysiz?

Ro‘zimboy HASAN,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

O‘QIDINGIZMI?



SHE’RIYATGA OSHNO MATEMATIK

Bu yil taniqli matematik olim, akademik, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi To‘xtamurod Jo‘rayev tavalludining 90 yilligi yurtimizda keng nishonlanmoqda. Shu munosabat bilan yaqinda u kishining ibratli hayot yo‘li, ilm-fan sohasida erishgan yutuqlari xususida muxtasar ma’lumot beruvchi “Orzular ushalgan umr” deb nomlangan to‘plam chop etildi. Ushbu kitobga serqirra olimning hamkasblari, zamondoshlari, shogirdlari va oila a’zolari yozgan xotiralar ham kiritilgani uning qimmatini yanada oshirgan.

Kitobni o‘qir ekansiz, To‘xtamurod Jo‘rayevni birgina sifat bilan ta’riflab bo‘lmasligini anglaysiz. Xotiralar qismida kimdir gapni “Fizika-matematika fanlari doktori, Xalqaro oliy maktab akademiyasining akademigi...” deb boshlasa, boshqa bir muallif “Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sohibi, benazir olim” deya davom ettiradi. Shogirdlari esa atoqli olimni “ilm-fanimizning asl fidoyisi”, “o‘zbek matematika fanining zalvorli ustunlaridan biri”, “chinakam ustoz”, “samimiy va kamtarin inson” degan sifatlar bilan xotirlaydi. Ular orasida “xususiy hosilali differensial tenglamalar sohasida ilmiy maktab yaratgan yirik mutaxassis” degandek, ilm-fandan uzoq kishilar uchun tushunarsizroq bo‘lgan ta’riflar ham bor. Har nechuk, bu o‘rinda uncha-muncha odamning bo‘yi va o‘yi yetmaydigan sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borgan ulug‘ olim haqida gap ketmoqda.

“Ilm va hayot yo‘llari”, “Zamondoshlari va hamkasblari xotirasi”, “Ilmiy sohadagi izdoshlar va shogirdlar ehtiromi”, “Oila a’zolari va yaqinlari yodida barhayot”, “Bebaho ilmiy meros” kabi boblardan tashkil topgan mazkur kitob akademik To‘xtamurod Jo‘rayevning ibratli hayoti va faoliyatini o‘zida yorqin aks ettirgani bilan ahamiyatlidir.

Ayniqsa, olim ko‘plab fan doktorlari va nomzodlarining ilmiy ishlariga rahbarlik qilish, matematika ilmiga oid qator monografiyalar, yuzlab maqolalar yozish bilan bir qatorda, muntazam ravishda badiiy ijod bilan ham shug‘ullangani ibratlidir.

Ustozning keksalik chog‘ida bitgan “Qari gilos bilan diydorlashuv” she’rida shunday misralar bor:

O‘ttiz yillik do‘stimsan, axir,
Meva qilib bizga yedirgan.
Ne daraxtlar kesilib ketdi,
O‘zing qolding g‘arib... qarigan.

Yoshligingda havas qilardik,
Gurkiragan baquvvat eding.
Shoxlaringni qancha egsak ham,
Egilarding, ammo sinmasding.

Hayotimiz o‘xshaydi, bilsang,
Sen gullading, men ham gulladim.
Sen ham meva, ham soya bersang,
Men ilm qilib, g‘oya berardim.

Shu bois ushbu kitobga aqlan matematika, qalban she’riyat bilan oshno bo‘lib yashagan ijodkor olimning she’rlaridan namunalar ham kiritilgani ayni muddao bo‘lgan, deyish mumkin. Qolaversa, kitobda To‘xtamurod Jo‘rayev umrining yorqin lahzalaridan hikoya qiluvchi qiziqarli suratlarga keng o‘rin berilgan.

Bir so‘z bilan aytganda, uzoq yillar davomida O‘zbekiston Milliy universiteti rektori, Fanlar Akademiyasi prezidenti lavozimlarida sidqidildan faoliyat ko‘rsatib, mamlakatimizda oliy ta’lim va ilm-fan sohalari taraqqiyotiga salmoqli ulush qo‘shgan fidoyi bir insonning sharafli hayot yo‘liga bag‘ishlangan “Orzular ushalgan umr” to‘plami har qanday toifadagi kitobxon uchun birday qiziqarli va foydali bo‘lishi shubhasiz.

N.HABIBULLAYEVA

MILLAT FIDOYILARI

QORAQALPOQ JADIDI

Sayfulg‘abit Majit taqdiri

U birinchi bor qoraqalpoq tilining fonetik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini nazariy jihatdan tadqiq qildi hamda ular asosida lotin grafikasidagi qoraqalpoq alifbosini yaratdi.



Qatag‘on qirg‘ini millat tanlamagan. Qaysi xalqning ilg‘or fikrli, millatparvar vakili bo‘lsa, deyarli barchasi sovet tuzumining qonli iskanjasiga tushib, qatliom domiga tortilgan. Qoraqalpoq adabiyoti va tarixshunosligida ma’lum-u mashhur Sayfulg‘abit Majitov ham zamonasining hurfikrli, peshqadam ziyolilaridan biri edi. U shoir, nosir, dramaturg, ma’rifatparvar va pedagog sifatida qoraqalpoq xalqi tarixida o‘chmas iz qoldirgan. 1920-yillarda uning nomi ma’rifat va savodxonlik g‘oyalari, gazeta chiqarish, ilk darsliklar, ma’rifatchilik va sahna san’ati rivoji bilan chambarchas bog‘liq edi.

1869-yili qashshoq dehqon Abdulraqip oilasida tug‘ilgan Sayfulg‘abit 8 yoshga to‘lganida oila yaxshi hayot izlab, avval Orenburgga ko‘chib o‘tadi. Orenburg o‘sha davrda Rossiya imperiyasining Turkiston bilan savdo olib boradigan markazi edi. Ammo 1877-1878-yillari rus-turk urushi boshlanishi bilan vaziyat o‘zgardi: barcha resurslar frontga safarbar etildi, harbiy bo‘linmalar tayyor holga keltirildi. Ana shunday tahlikali vaqtda Majitovlar oilasi Aqto‘be guberniyasiga ko‘chib ketadi. So‘ng Abdulraqip oilasi bilan birga savdo karavoniga qo‘shilib, Qo‘ng‘irotga ketishga majbur bo‘ladi.

Shu tariqa Majitovlar oilasi Chimboy uyezdi hududlariga kelib qoladi. Yosh Sayfulg‘abit mahalliy musulmon maktabiga qatnay boshlaydi. Zehni o‘tkir qahramonimiz tez fursatda savodini takomilga yetkazib, Iniyat Niyozov ismli bo‘lis boshqaruvchisiga kotib bo‘lib ishga yollanadi. Ayni shu davrda Sayfulg‘abitning ijodiy iste’dodi namoyon bo‘ladi. U xalq og‘zaki ijodi namunalarini yig‘adi, she’rlar yozadi va ma’rifatchilik bilan astoydil mashg‘ul bo‘ladi. Masalan, 1907-yilda yozilgan “Iniyat bolisqa” Voldst Iniyatga she’ridan misol keltirish mumkin:

Chimboyning yeri keng, suvi farovon,
Lekin bilimdan yo‘q hech nom-u nishon.
Yigirma ming uy, yigirma ming jon,
Bir maktab yo‘q, o‘qib, bilim olmag‘on...

1912-yili Majitovlar oilasi Qo‘ng‘irotga ko‘chib keladi. O‘sha paytlar Qo‘ng‘irot Markaziy Osiyo va Sharq mamlakatlariga Ustyurt kengligi orqali o‘tuvchi elchilar, savdogarlar va turli ekspeditsiyalarni qabul qiluvchi markazlardan biri bo‘lgan. Ushbu kent nafaqat yirik savdo, balki ma’rifat o‘chog‘i sifatida ham mashhur edi. Bu yerda ko‘plab mahalliy maktablar va masjidlar faoliyat ko‘rsatgan. Sayfulg‘abit Qo‘ng‘irotda taniqli o‘zbek ma’rifatparvar shoiri Muhammad Sharif So‘fizoda rahbarligidagi yangi usul maktabida ta’limni davom ettiradi. Aynan shu davrdan boshlab uning jadidlik g‘oyalariga asoslangan faoliyati boshlanadi va bu uning taqdirida hal qiluvchi burilish yasaydi.

Darhaqiqat, Sayfulg‘abit Majitov faoliyati XX asr boshida jadidlar ilgari surgan va amalga oshirgan g‘oyalar bilan uyg‘un edi. 1920–1924-yillarda u umumiy savodxonlik va ta’lim g‘oyasini faol ravishda targ‘ib etdi. Yangi usul maktablari ochdi, Qo‘ng‘irot bekligi maorif bo‘limiga rahbarlik qildi. Xivada nashr etiladigan “Inqilob quyoshi” gazetasi tahririyati bilan yaqindan hamkorlik o‘rnatdi.

1925-yilda Qoraqalpoq avtonom oblasti tashkil topgach, Sayfulg‘abit Majitov qoraqalpoq tilidagi ilk darsliklarni tuzish ishlariga jalb qilinadi. Bu vaqtda alifbo arab grafikasiga asoslangan edi. 1925-yil oxiriga kelib u “Qoraqalpoq tilida alifbe”, “Kambag‘allar savodi”, “O‘quv kitobi” nomli ilk qoraqalpoq darsliklarini tayyorlab, Toshkentda nashr ettirgan.

1927-yildan Sayfulg‘abit Majitov “Erkin Qoraqalpoq” gazetasi tahririyatida ish boshlaydi va bir vaqtning o‘zida ijod bilan shug‘ullanadi: she’rlar, pyesalar yozadi. Gazeta tahririyati huzurida tashkil qilingan adabiy to‘garakka rahbarlik qilib, qoraqalpoq o‘lkasining uzoq-yaqin mintaqalarida istiqomat qiladigan yosh shoir va yozuvchilarning boshini biriktiradi.

Shu davrda qoraqalpoq tili yozuvini lotin alifbosiga o‘tkazish jarayoni boshlangan edi. Sayfulg‘abit Majitov mazkur alifboga o‘tish qo‘mitasining faoliyatida ishtirok etadi. U birinchi bor qoraqalpoq tilining fonetik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini nazariy jihatdan tadqiq qildi hamda ular asosida lotin grafikasidagi qoraqalpoq alifbosini yaratdi. Novator pedagog o‘zining boy ilmiy-pedagogik tajribasidan foydalanib, lotin grafikasiga asoslangan darsliklar va o‘quv dasturlarini tayyorlashda ishtirok etdi va bu jarayonlarga rahbarlik qildi. Shuningdek, u “Suyin va Sara”, “Qulmurat”, “O‘n to‘qqiz”, “Bog‘dagul” nomli roman va pyesalarini nashr qildi.

Sayfulg‘abit Majitov birinchi marta 1930-yilda Taxtako‘pirdagi sovetlarga qarshi qo‘zg‘olon (1929-yil sentyabr) tufayli hibsga olindi. Uni aksilinqilobchi, Turkiston mustaqilligini targ‘ib qilayotgan yozuvchi sifatida ayblashgan. Millatparvar adib mahalliy yozuvchilar va jamoatchilik o‘rtasida katta hurmatga sazovor bo‘lgani uchun sakkiz oydan so‘ng oqlandi. Biroq uning asarlarini nashr qilish taqiqlab qo‘yilgan.

Shu paytdan boshlab Sayfulg‘abit Majitovga qarshi tanqidiy kampaniya uyushtirilib, uning sha’niga turli bo‘htonlar yog‘dirila boshlaydi. Bu jarayon “Majitovchilik” deb atalgan. A.Begimov degan “tanqidchi” “Qizil Qoraqalpog‘iston” gazetasida uni burjuaziya millatchisi sifatida ayblaydi. Bu atama o‘sha davrda eng og‘ir tavqi la’nat bo‘lib, ayblanuvchining hayoti xavf ostida ekanidan darak berardi. 1934-1935-yillar Sayfulg‘abit Majitov uchun eng og‘ir davr bo‘ldi. Uni qoraqalpoq adabiyotiga burjuaziya va millatchilik g‘oyalarini olib kirishda ayblashgan.

1935-yil 26–30-aprel kunlari qoraqalpoq yozuvchilarining besh kunlik birinchi seminari o‘tkazildi. Unda qoraqalpoq adabiyotida sotsialistik realizm masalalari muhokama qilinib, Sayfulg‘abit Majitov tanqid ostiga olinadi. Matbuot esa ushbu voqealar tafsilotini chop etish bilan cheklanmay, imkon qadar bo‘rttirib, olovga moy sepish bilan shug‘ullanadi. Masalan, Qoraqalpoq VKP(b) viloyat qo‘mitasining 1935-yil may oyida nashr qilingan “QQASSR Yozuvchilar uyushmasining faoliyati haqida”gi qarorida Sayfulg‘abit Majitov asarlarida “feodal, burjua-millatchilik mafkurasini aks ettirgan” deb ayblandi.

Sayfulg‘abit Majitov 1937-yil 20-sentyabrda ikkinchi marta hibsga olindi. Bu vaqtda respublika rahbariyatidagi deyarli barcha xodimlar zindonband etilgan edi. Barcha “ish”lar 169-raqami ostida birlashtirildi. Aybdorligini tan olish to‘g‘risidagi ko‘rsatmalar olish maqsadida unga nisbatan jismoniy va ma’naviy qiynoqlar qo‘llanildi. Sakkiz oy davomida insonga xos bo‘lmagan sharoitlarda saqlangan Sayfulg‘abit Majitov azoblarga dosh berolmay, qamoqda vafot etdi. Mudhish qatag‘on tig‘idan halok bo‘lgan fidoyi insonga qarshi qo‘zg‘atilgan to‘qima ayblar bugunga kelib tumandek tarqadi. Adolat qaror topdi.

Qoraqalpog‘istonda ulug‘ pedagog, ma’rifatparvar, olim-tadqiqotchi, shoir va dramaturg Sayfulg‘abit Majitov xotirasi e’zozlanib, uning ibratli hayoti va faoliyati targ‘ib etilyapti. Uning xotirasiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy ishlar nashr qilinib, tanlangan asarlari chop etilmoqda.


Qahromonimizning murakkab hayoti Vatan, xalq va ma’rifat g‘oyalariga sadoqat bilan xizmat qilishning benazir namunasidir. Jadidlar targ‘ib qilgan ma’rifat g‘oyalariga asoslanib el-yurt manfaati, kelajagi yo‘lida betinim mehnat qilgan bu siymoning unutilmas xotirasi xalqimiz qalbida doimo saqlanajak.

Asqar JO‘MASHEV,
Qoraqalpog‘iston gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim mudiri, tarix fanlari doktori, professor
Sabit NURJANOV,
Qoraqalpog‘iston gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori

TABDIL

MUXTORIYAT – MILLIY LAYLATUL QADRIMIZ

1917-yilning 27-noyabr tongi jadidlar ko‘nglidagi ozodlik g‘oyalarining shu’lalaridan yorishdi. Kechga borib, Qo‘qon shahrida yig‘ilgan Turkiston qurultoyi milliy ozodlik kurashi yo‘lidagi eng muhim amaliy qadamlardan birini qo‘ydi – Turkiston muxtoriyati rasman e’lon qilindi.



Turkiston muxtoriyati… Temur hoqonning chin bolalari yoninda, turkistonli tubchak turklari orasinda, mundan ug‘urli (xosiyatli), mundan muqaddas, mundan suyunchli bir so‘zni borlig‘iga ishonmayman.

Turkiston turkining qonini qaynatuvchi, imonini yuksaltguvchi bir quvvat bor esa yolg‘uz shu so‘zda bordur: Turkiston muxtoriyati!

Ellik yildan beri ezildik, tahqir etildik, qo‘limiz bog‘landi; tilimiz kesildi, og‘zimiz qopondi (yopildi), yerimiz bosildi, molimiz talandi, sharafimiz yumuruldi, nomusimiz g‘asb qilindi, huquqimizg‘a tajovuzlar bo‘ldi, insonligimiz oyog‘lar ostig‘a olindi – to‘zimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har buyrug‘ga bo‘yunsundik, butun borlig‘imizni qo‘ldan berdik. Yolg‘iz bir fikrni bermadik, yashunturdik, imonlarimizga avrab saqladik: Turkiston muxtoriyati!

Mahkama eshiklaridan yig‘lab qaytganda, yorug‘siz turmalarda yotganda, yirtg‘uvchi (yirtqich) jandarmaning tepkusi bilan yiqilg‘anda, yurtlarimiz yondurulg‘anda, dindoshlarimiz osilg‘anda ongimiz yo‘qoldi, miyamiz buzuldi, ko‘zimiz yog‘dusiz qoldi, biror narsani ko‘ralmadik. Shul chog‘da, tushkun ruhimizni ko‘tarmak uchun shul qop-qorong‘u dunyoning uzoq bir yerinda oydin bir yulduz yalqillab tura edi. Biror narsaga o‘tmagan ko‘zimiz shuni ko‘ra edi. Ul nima edi? Turkiston muxtoriyati!..

Inqilob bo‘ldi. Rusiyaning “qo‘shma xalq jumhuriyati” usuli bilan idora etiluri jarlandi (e’lon qilindi). Shul e’lon uzra yasalg‘an Ukraina, tatar va boshqa millatlar muxtoriyatlari tasdiq etildi. Ko‘nuq (navbat) Turkistonniki edi.

TURKISTON MUXTORIYATI MARKAZIY BOSHQARUVI

Turkiston Muvaqqat Kengashi
Millat Majlisi parlament
Ijroiya hokimiyat

Islom Sulton o‘g‘li Shoahmedov – Bosh vazir o‘rinbosari

Mustafo Cho‘qayev – tashqi ishlar vaziri

Abdurahmon O‘rozayev – ichki ishlar vaziri o‘rinbosari

Bosh vazir va ichki ishlar vaziri – **M.Tinishboyev,** keyinchalik **M.Cho‘qayev**

Ubaydulla Xo‘jayev – harbiy vazir

Hidoyatbek Yurg‘uli Agayev – yer va suv boyliklari vaziri

Salomon Abramovich Gertsfeld – moliya vaziri

Obidjon Mahmudov – oziq-ovqat vaziri

Turkistonning tarixiy xonbaliqlarindan (poytaxtlaridan) ikkinchisi bo‘lg‘an Ho‘qand shahrinda to‘plangan Turkiston qurultoyi 27-noyabrning (milliy laylatulqadrimiz bo‘lg‘an) yarim kechasinda Turkiston muxtoriyatini e’lon qildi.

Lekin shunisi borkim, bir millatning muxtoriyati yolg‘uz bir s’yezdning e’loni bilan tamom bo‘lmas. Muxtoriyatni olmoq va saqlamoq kerakdur. S’yezd o‘z ishini qildi. Qolganlari butun millatning vazifasidur. Muxtoriyatni saqlamoq uchun kuch lozim. Muxtoriyatni bajarmoq uchun aqcha kerakdur. Bunlarni millat hozir qilsun.

FITRAT
“Hurriyat”, 1917-yil 5-dekabr.

XOTIRA AZIZ



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Mulla Yusuf Yoqubov – 1870-yili Jizzax rayonida tug‘ilgan. 1919-yilda “Sho‘royi Islom” tashkilotiga a’zo bo‘lgan. Aksilinqilobiy faoliyati uchun 1919, 1932 hamda 1933-yillari qamoqqa olingan. Qamoqqa olingunga qadar imomlik qilgan. Aholi orasida mag‘lubiyatchilik targ‘ibotini olib borganlikda ayblanib, otuvga hukm qilingan.

Mulla Egamberdi Bobojonov – 1889-yili Jizzax shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” va “Sho‘royi Islom” tashkilotlarining a’zosi bo‘lgan. Aholi orasida mag‘lubiyatchilik targ‘ibotini olib borganlikda, fashistik tuzumni maqtaganlikda ayblanib, otuvga hukm qilingan.

Abdulla Ahmedov – 1892-yili Jizzax shahrida tug‘ilgan. Aksilinqilobiy faoliyati uchun 1933-1934-yillari qamoqqa olingan. Hibsga olingunga qadar teatr xo‘jaligi mudiri bo‘lib ishlagan. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi bo‘lib aholi orasida millatchilik targ‘iboti olib borganlikda, Stalin konstitutsiyasiga qarshi fikr bildirganlikda ayblangan. 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 17-avgustdan hisoblangan.

Nosir Mamashev – 1887-yili Jizzax shahrida tug‘ilgan. Sobiq politsiya xizmatchisi bo‘lgan. 1918-yili partiyadan o‘chirilgan. Shu yili “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilot a’zosi bo‘lgan. 1932-yili bosmachilikdagi ishtiroki uchun 3 yil qamoqqa hukm qilingan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Aholi orasida kolxozga qarshi targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan.

Ahmadjon Nosirboyev – 1884-yili Jizzax shahrida tug‘ilgan. Sobiq savdogar. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. 1932-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun qamoqqa olingan va 7 oy hibsda bo‘lgan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Aholi orasida xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan.

Junaydullaxon Yoqubov – 1894-yili Farg‘ona rayoni Yormozor qishlog‘ida tug‘ilgan. “Sho‘royi Islom” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. Aholi orasida mag‘lubiyatchilik targ‘iboti olib borganlikda, “Musulmonobod” hukumatini tiklash haqida tashviqot yurgizganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan.

Aziz Qayumov – 1898-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. 1919-yildan 1935-yilgacha partiya a’zosi bo‘lgan. Ijtimoiy kelib chiqishini yashirgani uchun keyinchalik partiyadan o‘chirilgan. “Botir gapchilar” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. Hibsga olingan vaqtda institutda instruktor bo‘lgan. Aholi orasida millatchilik targ‘iboti olib borganlikda, zayomga yozilishga qarshi chiqqanlikda ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 21-avgustdan hisoblangan.

Muydin Ulug‘xonov – 1870-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. 1916-yildan “Sho‘royi Islom” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Aholi orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblangan.

Tolibjon Oxunjonov – 1884-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. 1920-yildan 1930-yilgacha partiya a’zosi bo‘lgan. Aksilinqilobiy faoliyati uchun 3 yil qamoqqa hukm qilingan va shu sabab partiyadan o‘chirilgan. Hibsga olingunga qadar nafaqaxo‘r bo‘lgan. Aholi orasida millatchilik targ‘iboti olib borganlikda, ocharchilik to‘g‘risida mish-mishlar tarqatganlikda ayblanib, otuvga hukm qilingan.

Shahobiddin Tursunboyev – 1871-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. Hibsga olingunga qadar imomlik qilgan. “Sho‘royi Islom”, “Muynil Islom” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Aholi orasida doimiy ravishda mag‘lubiyatchilik targ‘iboti olib borganlikda ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 18-sentyabrdan hisoblangan.

Multarxon Asqarxonov – 1896-yili Chust shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Aholi orasida millatchilik targ‘iboti olib borganlikda, she’rlarga aksilinqilobiy o‘zgartirishlar kiritganlikda ayblangan. 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 7-iyuldan hisoblangan.

Mirza Ne’mat Boyvachcha Og‘alikov – 1900-yili Uychi rayoni Yorqo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. Hibsga olingan vaqtda qishloq matlubotida ishchi bo‘lgan. Kolxozda buzg‘unchilik ishlari olib borganlikda va aksilinqilobiy adabiyotlarni saqlaganlikda ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 1-oktyabrdan hisoblangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

QILMISH-QIDIRMISH

TUPROQQA “EKILGAN” AJAL URUG‘I

“Qahramon”larimizning ota-onasi qizlari kelgusida geolog kasbini egallab, rizqini ona tuproq bag‘ridan halol yo‘l bilan topib, el orasida obro‘-e’tibor qozonadi, deb umid qilgan bo‘lsalar ne ajab. Ammo ularning “geologlik ishi” boshqa tuban maqsadga yo‘naltirilgan edi. Oqibatda yosh umrlari tuproqtegi, ota-onalarining boshlari xam bo‘lib, yerga egildi...



Ichki ishlar vazirligi tomonidan taqdim etilgan statistik raqamlarga ko‘ra, 2022-yilda 2 ming 427 ta, 2023-yilda 3 ming 13 ta giyohvandlik vositalarini o‘tkazish bilan bog‘liq jinoyat aniqlangan.

Bu kabi vositalar miqdori ham ortgan – 2022-yilda 2 ming 31, 2023-yilda 10 ming 306 kilogramm giyohvandlik vositasi aniqlangan bo‘lsa, psixotrop moddalar 2022-yilda 81 kg, 2023-yilda esa 172 kg muomaladan olingan.

Nima bo‘ldi-yu, Nigora sessiya imtihonlari oralig‘idagi tanaffusda zerikib, telegram orqali rossiyalik Zina ismli ayol bilan tanishib, qisqa vaqtda u bilan apoq-chapoq bo‘lib qoldi. Ayniqsa, Zinaning suratlariga boqib, uning mo‘may daromad topuvchi zamonaviy ayol ekani diqqatini tortdi. Yanada yaqinroq tanishish istagi paydo bo‘ldi.

– Qanday ish bilan shug‘ullanasiz, sir bo‘lmasa? – deb so‘radi u Zinadan.

– Juda mas’uliyatli, shunga yarasha serdaromad ish, – dedi u. – Istasangiz, siz ham shug‘ullanishingiz mumkin, yo‘l-yo‘rig‘ini o‘rgataman.

U shunday deya “serdaromad ish”ning nomini yozib, uni telegramdan “izlov” buyrug‘i orqali o‘zi topib olishini aytdi. Nigora o‘ylanib ham o‘tirmadi. Aynan ana shu beqarorligi sabab muqaddam birovga og‘ir tan jarohati yetkazib, 3 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosiga tortilgani, sudda xudoning zorini qilib, norasida bolasini o‘rtaga solib, yengillik olganini ham unutdi. Zina bilan suhbatlari tugashi arafasida singlisi Komila oshig‘i Davronni yetaklab xonaga kirib qoldi. Ularga “bebiliska soqqa” daragini suyunchiladi va aytilgan manzilni tarmoqdan izlashga tushdi. Mana, topdi! Ro‘yxatdan o‘tish kerak ekan, o‘tdi!

Sal o‘tmay telefoniga qo‘ng‘iroq bo‘ldi. Bu “ish”ni boshlashdan oldin yaxshilab o‘ylab ko‘rishi, chunki juda xavfliligi, lekin ehtiyotkorona shug‘ullansa, tez orada katta foyda ko‘rishi haqida gapirdi go‘shakning narigi tomonidagi odam.

– Qarorim qat’iy, – dedi Nigora. – Vazifalarimni tushuntiring!

Barchasi tushuntirildi: vazifasi, ishlash tartibi, vaqti, xizmat haqi...

Hatto unga alohida “ustoz” rahbar biriktirildi. Nigora kelgusida topshiriqni ana shu rahbaridan oladi va uning ko‘rsatmalari asosida ish yuritadi, uning ruxsatisiz ortiqcha bir qadam ham tashlamaydi. Nigorani ijtimoiy tarmoqda avvaldan mavjud bo‘lgan bir guruhga qo‘shib qo‘yishdi.

Maslakdoshlar guruhi hisoblanmish bu “hamkasblar” topshiriqni mana shu yerdan olishadi va bajarishadi. Maoshlari ishbay, vazifaning muvaffaqiyat darajasiga qarab, elektron hamyonlariga tashlab beriladi.

Rahbari o‘rgatganidek, Nigora “narkokuryerlik”, ya’ni giyohvand moddalarini tashish va yetkazish ishlarini bajarishi uchun zarur bo‘lgan ilovalar – internet ulamasdan ham mahsulotning joylashuv joyini aniqlab topib beradigan; joylashuv joyini belgilaydigan; bir necha suratni bir fotoda jamlaydigan; elektron hamyon kabi ilovalarni telefoni xotirasiga yuklab oldi. Toshkent shahridan bir xonadonni ijaraga olib, elektron hamyoniga oldindan homiylari yuborgan pulga mahsulotni qadoqlash uchun kerak bo‘ladigan jihozlar xarid qildi. Qadoqlash ishlarini ular telegramdagi guruhga yuborgan videoqo‘llanmadan o‘rganib oldi.

Tayyorlov bosqichidan o‘tgach, boshqaruvchisidan xabar keldi: “Sening asosiy vazifang – telegramdan yuborilgan manzillarga borib, u yerlarga ko‘mib qo‘yilgan yaxlit “tovar”ni topib olish, uni turli og‘irlik va hajmdagi bo‘laklarga bo‘lib, qayta qadoqlash va kelgusida internet tarmog‘i orqali sotishimiz uchun bizning ko‘rsatmamiz bo‘yicha Toshkent shahri va viloyati tumanlaridagi hududlarga qayta ko‘mib chiqishdan iborat! Ish vaqti tonggi soat 4:00 dan kunduzgi soat 11:00 gacha, chunki bu vaqt ishlash uchun eng xavfsiz, militsiya xodimlari bo‘lmaydi”. Shu zahotiyoq uning ilk vazifasini amalga oshiradigan joy manzillari lokatsiyasini yubordi.

Topshiriqni qabul qilib olgan Nigora yoniga singlisi Komilani olib, Davronning “Spark” rusumli mashinasida Bo‘stonliq tumani sari otlanishdi.

Tonggi soat 4:00 da o‘sha manzilga yetib borib, u yerga “hamkasblari” tomonidan ko‘mib ketilgan mahsulotni topib, qazib olishdi. Og‘irligi 100–150 gramm miqdoridagi qadoqlanmagan sintetik giyohvandlik vositalarini ijara uyga olib kelishdi. Uni bir nechta kichik-kichik bo‘lakchalarga bo‘lib, qayta qadoqlashdi. O‘rgatishganidek, Nigora yangi mahsulot tayyor bo‘lgani haqidagi suratni tayyorlab, telegramdan jo‘natgan edi, sal o‘tib ish boshqaruvchi paketchalarni ko‘mib kelish uchun yangi lokatsiyalar yubordi. Yana uchovlon tun qorong‘isida yo‘lga tushishdi va koptokchalarni bu gal O‘rta Chirchiq, Yuqori Chirchiq va Bo‘stonliq tumanlaridagi tegishli hududlarga ko‘mib chiqishdi.

Kundan-kunga jo‘natmalar vazni ham, unga to‘lanadigan haq miqdori ham oshib borardi. Nigora may oyida notanish shaxsdan navbatdagi jo‘natma – 3 dona qog‘oz qutini olib qoldi. Jo‘natmada suv nasosi bo‘lib, uning ichida qog‘ozga o‘ralgan 700 dona tabletka, 300-400 gramm giyohvandlik vositasi joylangan edi.

Ko‘rsatmaga binoan uchovlon avval tabletkalarni maydalab kukun holiga keltirishdi. So‘ng ozdirish uchun chiqarilgan kapsulalarning ichini bo‘shatib, o‘rniga o‘sha kukunni joylab chiqishdi. Endi qismlarga ajratib, aytilgan joylarga ko‘mib kelish qoldi, xolos. Bu manzillarning aksariyati oliy o‘quv yurtlari, maktab va litseylarga yaqin joy edi. Bu yerdan kimlarga tarqalishi esa o‘zingizga ma’lum.

Hamtovoqlar “yangi biznes”i baroridan kelayotgani va mo‘maygina daromad topishayotganidan juda xursand edi.

Bu tunda yanada katta ish kelib tushdi: Olmazordan Toshkent tumani Hasanboy shaharchasigacha tasvirlangan manzildan tovarni olish kerak. Opa-singil Davron boshqaruvidagi ulovga o‘tirib, Toshkent tumanidagi “Favvora” kafesiga yondosh qurilishi tugallanmagan binoning orqa tarafida joylashgan maydonga borishdi. Rejaga ko‘ra, opa-singillar mashinada kutib turadigan, Davron yukni topadigan bo‘ldi. Yigit ulovidan tushdi, telegramdan kelgan lokatsiya bo‘yicha harakatlanib bordi.

Binodan 50 metr uzoqlikdagi dala maydonida o‘tlar orasiga ko‘mib qo‘yilgan “xazina”ni topdi. Polietilen paketga joylangan, plastik idishlardagi tovar naq 3,9 kg giyohvandlik vositasi edi.

– Hosil mo‘l-ku, – deya uning tuprog‘ini qoqarkan tirjaydi Davron. – Demak, soqqasi ham zo‘r bo‘lar ekan-da!

Ammo bu gal uning xursandchiligi uzoqqa cho‘zilmadi. Xaltani yerdan olishi bilan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari uni qo‘lga olishdi. Yuzlab yoshlarni, xususan, talabalarni, o‘quvchilarni yoki ularning ota-onalarini tubsiz jarlikka g‘arq etishi mumkin bo‘lgan og‘uning tarqalishiga bu gal vaqtida nuqta qo‘yildi.

Ekspertiza xulosasiga ko‘ra, tezkor tadbir davomida fosh bo‘lgan ushbu modda respublikamiz hududida muomalasi taqiqlangan giyohvand vositalari turkumiga kirishi aniqlandi. Jinoyatga jazo muqarrar. Sud ishni har tomonlama o‘rganib chiqib, Nigoraga muqaddam tayinlangan jazoning o‘talmagan qismini qisman qo‘shish yo‘li bilan uzil-kesil 11 yil 6 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinladi. Shuningdek, Komila 6 yil, Davron esa 10 yil muddatga ozodlik degan baxtni tuymaydigan bo‘lishdi.

Umid qilamizki, bu muddat ular qilmishlarining jirkanchligi va insoniyatga choh ekanini tushunib yetishlari hamda xatolaridan to‘g‘ri xulosa chiqarib olishlari uchun bir saboq bo‘ladi. Zero, jinoyatga jazo tayinlashdan asosiy maqsad ham shu, aslida.

Tafsilotdan niyatimiz esa barchani yanada hushyorlikka chorlash, asr vabosi bo‘lmish giyohvandlikka, uning bugungi tezkor axborot maydonidagi uchqur va xiylakor harakatiga qarshi har birimiz kurashishimiz va bu borada yanada jipslashishimiz kerakligini uqtirishdir.

ILDIRGI: *Maqola Jinoyat ishlari bo‘yicha Nurafshon shahar sudida ko‘rilgan jinoyat ishi materiallari asosida tayyorlandi.*

Nurxon ELMIRZAYEVA,
jurnalist



Jinoyat kodeksi 273-moddasi 5-qismi:

“Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni ko‘p miqdorda qonunga xilof ravishda sotish 10 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.”

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Xayol chalg‘ib yo‘l chetida turgan bir mashinani turtib yubordim. Chiqib qarasam, egasi yo‘q ekan. Eshigiga raqamimni yozdim-da, yo‘limda davom etdim. Besh daqiqa o‘tar-o‘tmas telefonim jiringladi va ayol kishi: “Assalomu alaykum, mashinamni turtib ketibsiz, kelasizmi?” dedi. Hozir boraman, dedim va dilimda iliqlik paydo bo‘ldi. Chunki bunaqa payti mashinasi shikast yeganlar dag‘dag‘a qiladi va bunga haqqi bor. Bu ayol esa salom bilan boshladi gapni.



INSOFLI YOSHLAR

Yetib borganimda yoshgina juvon boyagi mashinani oldida turgan ekan. “Salondan bir oy bo‘ldi chiqqaniga”, dedi kulib, so‘ng eriga telefon qilib menga tutqazdi go‘shakni. Eri ham salom bilan, odob bilan gap boshladi. “Mashinani urgan joyingizni suratga olib telegramdan tashlab bering, ustalar bilan gaplashib, narxini aytaman”, dedi. “GAI chaqiramiz, unday qilaman, bunday qilaman”, demadi. Yap-yangi “Onex”ni turtgan ekanman. Rasmga olib tashlab berdim. Rosti, bunaqa ishkallarni eshitaverib, kamida uch million mo‘ljallab turuvdim. Yo‘q, unday bo‘lmadi. “Aka, siz ham bu ishni ataylab qilmadingiz, sizniyam bola-chaqangiz bor, og‘rinmang, usta bilan gaplashdim, rozi bo‘lib ayolimga 400 ming berib keting, bo‘ladi” dedi. Uning gapini eshitib, gapirolmay qoldim. Uning o‘rnida men bo‘lsam shunaqa dermidim, boshqa bo‘lganda-chi?

U aytgan pulni berib, rahmat aytdim va ketdim. Ertasi kuni o‘z mashinamning qirilgan joyini tuzatish uchun ko‘pchilikning tavsiyasi bilan bir ustaning oldiga bordim. Usta oltmishlardan oshgan kishi ekan. Mashinamni ko‘zdan kechirib bo‘lgach, “To‘rt kun tashlab ketasiz, uch yarim million bo‘ladi”, dedi. “Juma kuni dam olaman, bezovta qilmaysiz”, deb qo‘shimcha qildi yana.

Xo‘p, dedim va to‘g‘ri Farhod bozori yonidagi avtoustalar makoniga bordim. U yerda qirilgan, turtilgan moshinalarni tuzatadigan yigitni aytishdi. Fazliddin ekan ismi. U 25 yoshlar atrofidagi yigit ekan, mashinamni ko‘rgach: “Bir soatda oyday qilib beraman, 300 ming so‘m bo‘ladi”, dedi...

Men ikki kunda ro‘y bergan bu voqealardan juda ta’sirlandim.

Endi men so‘zda bor-u amalda yo‘q kattalarga emas, so‘zi, amali, insofi bor mana shunday yoshlarga ishonaman. Ular yomonlanadigan davralarda o‘tirmayman. Insofdan ayrilmagan yoshlarga ta’zim qilaman. “Juma”ni pesh qilib, bez bo‘lib og‘ziga kelgan pulni so‘raydigan, insof-u iymonini yeganlardan O‘zi asrasin!

Maqsud JONIXONOV
Facebook

TILBILIM

PIROG va CHEBUREK

Yanglishmasam, 2008-yil edi. Shoir Usmon Azim bilan Qrimga, Xalqaro turkiy she’riyat festivaliga borganmiz. Qrimtatarlar o‘zbeklarni ko‘p yaxshi ko‘rar ekan, Stalin tomonidan qatag‘on qilingan qayg‘uli kunlarida o‘zbeklar ularga non-tuz, boshpana berganligi uchun o‘zlarini qarzdor his etar ekanlar. Pul yig‘ishib, o‘zbek xalqi hurmatiga Qrimda kattagina yodgorlik ham o‘rnatishgan ekan. “O‘zbekistonda bizning qabrlarimiz qolgan”, deya qayg‘uli gapirganlari hamon esimda.



Shungami, ular bizni ko‘p siylashdi, o‘zbek shoirlari kelibdi deyishib, navbatma-navbat mehmonga chaqirishdi. Qarangki, qaysi uyga qo‘noqqa bormaylik, uy bekalari o‘choq boshida cheburek pishirib kuymalanayotganini ko‘rganmiz. Men shunda cheburek qrimtatarlarning birinchi raqamli qadimiy taomi ekanini bilganman. Demak, o‘zining eng suyukli taomiga nomni bu xalq birovdan qarzga olib o‘tirmaydi, o‘z tilidan topadi.



Shu o‘rinda asli turkiy bo‘lgan cheburek so‘zi haqida ham ikki og‘iz so‘z. Qirimtatar tilidan dunyoga keng tarqalgan bu so‘zning tarkibida ham pirogdagi kabi *burek – börek* so‘zi bor. Manbalarda *çig – maydalangan go‘sht* ma’nosini va börek pirog ma’nosini anglatishi haqida aytib o‘tilgan.

Eshqobil SHUKUR

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Pirnafasova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 5 827
Lotin yozuvidagi adadi – 11 904
Media kuzatuvchilar – 19 170
Buyurtma: G – 1140.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:30
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz